

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**TILOVOVA GAVHAR ABDAXATOVNA**

**INGLIZCHA-O'ZBEKCHA QISHLOQ XO'JALIK TERMINLARI  
LUG'ATI**

**60810900 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha), 60811800 –  
Meva-sabzavotchilik va uzumchilik yo'nalishlari uchun**

**Toshkent-2022**

Ushbu “Inglizcha-o‘zbekcha qishloq xo‘jalik terminlar lug‘ati” ToshDAU o‘quv-uslubiy kengashining 2021 yil 25 dekabrdagi yig‘ilishida tasdiqlangan va chop etishga ruhsat etilgan.

**Tuzuvchi:** Toshkent davlat agrar universiteti katta o‘qituvchisi  
f.f.f.d., PhD G.A. Tilovova

**Taqrizchilar:** Toshkent davlat agrar universiteti Tillar kafedrasи mudiri,  
dotsent U.T. Abdullayeva  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti,  
f.f.f.d. N.E. Abdullayeva

Ushbu lug‘atda to‘plangan so‘zlar barchaga o‘simliklar olami va agrotexnikasiga doir bo‘lgan so‘zlarni bilib olishida eng asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Lug‘atdan oliy o‘quv yurti talabalaridan tashqari maktab, akademik litsey va texnikum talabalari, shuningdek ingliz tilini mustaqil o‘rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

## MUNDARIJA

So‘z boshi.....	4
Lug‘atdan foydalanish tartibi.....	5
O‘zbekcha qisqartmalar.....	6
Inglizcha qisqartmalar.....	6
Ingliz alifbosi.....	7
A.....	8
B.....	13
C.....	17
D.....	23
E.....	26
F.....	27
G.....	31
H.....	33
I.....	37
J.....	38
K.....	39
L.....	40
M.....	43
N.....	46
O.....	47
P.....	49
Q.....	53
R.....	53
S.....	55
T.....	63
U.....	67
V.....	68
W.....	70
X.....	72
Y.....	72
Z .....	73
Geografik nomlar ro‘yxati.....	74

## SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, kishilik jamiyati rivojlanib borgani sari insonlarda o‘z ona tilini va boshqa chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tabiiy ravishda kuchayib boraveradi. Shuningdek madaniy hayotimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar inson tafakkuriga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmayapti. Integratsiyalashuv jarayonlari axborot kommunikatsiya tizimiga, ilm-fanga, san’atga, sportga va ishlab chiqarishning deyarli barcha yo‘nalishlariga chuqur ta’sir qilib insonlarda chet tillarini yanada chuqurroq, mukammal o‘rganishga va egallashga bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada oshirdi. Bu esa qishloq xo‘jalik sohasida ta’lim-tarbiya olayotgan talabalarning talab, intilish va qiziqishlariga bevosita turtki bo‘lib, 60810900 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo‘yicha), 60811800 – Mevasabzavotchilik va uzumchilik yo‘nalishlariga doir “Inglizcha-o‘zbekcha qishloq xo‘jalik terminlar lug‘ati”ni ishlab chiqishga sabab bo‘ldi. Mazkur lug‘at alifbo tartibida tuzilgan bo‘lib, 1800 ta so‘zni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, talabalarning ana shu ehtiyojlarini qondirish maqsadida ushbu lug‘at yuzaga keldi. Taqdim etilayotgan lug‘at qishloq xo‘jalik sohasiga doir terminlardan tashkil topgan bo‘lib, o‘simpliklar, daraxtlar va gullar, qisqa qilib aytganda yer va dehqonchilikning barcha sohalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu lug‘at o‘rtacha qiyinchilikdagi sohaga tegishli bo‘lgan matnlarni tarjima qilishda qo‘l keladi. Shu bilan birga lug‘at agrar universitetga kirishni istagan akademik litsey, texnikum va maktab o‘quvchilari va oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan.

Lug‘atni tuzishda eskirgan so‘zlardan va boshqa sohalarga oid bo‘lgan atamalardan deyarli foydalanilmadi. Lug‘atda mavjud kamchiliklarni anglab fikr bildirilishidan va xatolarni tuzatilishidan mamnun bo‘lamiz.

## Lug‘atdan foydalanish tartibi

Lug‘at maqolalari alifbo tartibida berilib, qora rang bilan ajratib qo‘yilgan;  
Har bir lug‘at maqolalaridan so‘ng ularning transkribtsiyalari to‘rtburchak qavs ichida berilgan.

Masalan: **ABC** [ ,eɪbi: 'si:]

Transkribtsiyadan so‘ng og‘ma yozuvda ularning qaysi so‘z turkumiga oidligi qisqartma shaklda ko‘rsatilgan.

Masalan: **ABC** [ ,eɪbi: 'si:] *n*

So‘z turkumi belgisidan so‘ng so‘z yoki atama qaysi sohaga oidligi yoki qaysi tildan olinganligi og‘ma yozuv bilan qisqartirilib ko‘rsatib o‘tilgan.

Masalan: **abnodate** [ `æbnədeɪt] *v q.x.* daraxtlarning shox-butoqlarini kesib tashlamoq.

Ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolari raqamlar tartibida berilgan.

Masalan: **adjuvant** [ 'ædʒuvənt] *n* 1) yordamchi, yordamchi xo‘jalik; 2) *a* yordam beruvchi, foydali.

Agar illustrativ materiallar berilgan bo‘lsa so‘z yana qaytarilmasligi uchun (~) belgisi bilan berilgan.

Masalan: **acerose** [ `æsərəʊs] *a bot.* ignasimon; ~ leaf ignabarg.

## O'ZBEKCHA QISQARTMALAR

arab.	arabcha	kim.	kimyo
amer.	amerikanizm, amerikancha	lot.	lotincha
anat.	anatomiya	mif.	mifologiya
avst.	avstraliya	nem.	nemischa
biol.	biologiya	q.x.	qishloq xo'jaligi
bot.	botanika	so'zl.	so'zlashuv
esk.	eskirgan so'z va ibora	shoir.	shoirona so'z va ibora
fon.	fonetika	shotl.	shotlandcha
fr.	fransuzcha	tar.	tarixiy
gram.	grammatika	tex.	texnika
isp.	ispancha	tib	tibbiyot
		zool.	Zoologiya

## INGLIZCHA QISQARTMALAR

a	adjective	sifat
adv	adverb	ravish
attr	attributive	aniqlovchi
conj	conjunction	bog'lovchi
n	noun	ot
p.p. of	past perfect of	...ning o'tgan zamon sifatdosh shakli
pl	plural	ko'plik
prep	preposition	predlog
pron	pronoun	olmosh
v	verb	fe'l

## **INGLIZ ALIFBOSI**

Aa [eɪ]	Nn [en]
Bb [bi:]	Oo [əʊ]
Cc [si:]	Pp [pi:]
Dd [di:]	Qq [kju:]
Ee [i:]	Rr [a:]
Ff [ef]	Ss [es]
Gg [dʒi:]	Tt [ti:]
Hh [eɪf]	Uu [ju:]
Ii [ai]	Vv [vi:]
Jj [dʒeɪ]	Ww ['dʌblju:]
Kk [keɪ]	Xx [eks]
Ll [el]	Yy [wai]
Mm [em]	Zz [zed]

## A a

**A, a** [eɪ] *n* ingliz tili alifbosining birinchi harfi.

**abaca** ['æbəkə] *n* 1) aboka daraxti yoki shu daraxtdan qilingan ip; 2) kanop tola.

**abele** [ə'bi:l] *n bot.* oqterak.

**aberrance, -cy** [æ'berəns, -sɪ] *n* 1) *biol.* normal turdan chetga chiqish.

**abloom** [ə'blu:m] *adv* gulli, gullagan; gardens ~ **with roses**.

**abnodate** ['æbnədeɪt] *v* *q.x.* daraxtlarning shox-butoqlarini kesib tashlamoq.

**aborted** [ə'bɔ:tɪd] *a* 1) chala tug'ilgan; 2) *biol.* yaxshi rivojlanmagan; ~ **escape** sindirilgan novda.

**aboveground** [ə,bʌv'graund] 1. *a* 1) tirik, yashab yurgan; 2) yer ustidagi; 2) *adv* tiriklayin.

**abscission** [æb'sɪʃn] *n bot.* ajralib tushishi; ~ **of leaves** daraxtlardagi barglarning yerga tushishi.

**abundance** [ə'bʌndəns] *n* to'kinchilik.

**abutment** [ə'bʌtmənt] *n* uvat, chegara.

**acacia** [ə'keɪʃə] *n bot.* akatsiya (*daraxti*).

**academic** [ækə'demik] *n* oliv o'quv yurtining o'quvchisi, professor yoki ilmiy xodimi; ~ **year** o'quv yili.

**academical** [ækə'demɪkl] *a* akademiyaga oid, universitetga oid.

**academy** [ə'kædəmɪ] *n* akademiya, oliv o'quv muassasasi.

**acanthus** [ə'kænθəs] *n bot.* ayiqtovon.

**acarpous** [,eɪ'ka:pəs] *a bot.* mevasiz, meva bermaydigan.

**acclimatization** [ə,klaɪməta'zeɪʃn] *n* iqlimga moslashtirish.

**acclimatize** [ə'klaɪmətaɪz] *v* iqlimga moslashtirmoq.

**accrementation** [,ækrimɪn'tɪʃn] *n biol.* organik o'sish.

**accrescent** [ə'kresənt] *a* o'sib boruvchi.

**accrete** [ə'kri:t] 1. *a bot.* tutashib ketgan; 2. *v* bitta bo'lib qo'shilib ketmoq (*o'sish yoki rivojlanish davrida*).

**accretion** [æ'kri:ʃn] *n* 1) o'sish, ko'payish; 2) *biol.* tabiatan o'sish.

**accretive** [ə'kri:tɪv] *a* o'sib boruvchi, kattalashib borayotgan.

**acerose** [`æsərəʊs] *a bot.* ignasimon; ~ **leaf** ignabarg.

**acinose** [æsɪ'nəʊs] *a* doni ko'p, serdon.

**aconite** ['ækənait] *n bot.* akonit, parpi (*dorivor o 'simlik*).

**acorn** ['eɪkɔ:n] *n* cho'chqayong'oq (*dub daraxtining mevasi*).

**acquisition** [,ækwi'zɪʃn] *n* o'zlashtirish; ~ **of land** yerni o'zlashtirish.

**acre** ['eɪkə] *n* 1) akr. Angliyada va shimoliy Amerikada 0,4047 gektarga teng yer maydoni; 2) yer, yer-suv.

**adapt** [ə'dæpt] *v* moslashmoq, moslashtirmoq.

**adhere** [əd'hɪə] *v* yopishmoq, yopishib turmoq, osilmoq.

**adherent** [əd'hɪərənt] 1. *a* yopishqoq, shirali.

**adhesion** [əd'hi:ʒən] *n* yopishish, yelimlab ulash; ~ **of soil** *q.x.* yopishqoq tuproq.

**adjacency** [ə'dʒeisənsı] *n* 1) *pl* tevarak-atrof, atrof-muhit.

**adjuvant** ['ædʒuvənt] 1. *n* yordamchi xo'jalik; 2. *a* yordam beruvchi, foydali.

**aerate** ['eəreɪt] *v* shamollatmoq.

**aeration** ['eəreɪʃn] *n* shamollatish, havoni yangilash; ~ **of the soil** tuproqning havoda to'yintirilishi.

**affluence** ['æfluəns] *n* mo'lchilik, to'kin-sochinlik.

**affluent** ['æfluənt] *a* serob, mo'l-ko'l.

**afflux** ['æflʌks] 1. *n* oqib kelish; 2. *v* oqib kelmoq.

**afforest** [æ'fɔrist] *v* daraxtzorni tiklamoq.

**afforestation** [æ,fɔris'teɪʃn] *n* daraxtzorga aylantirish, daraxt ekish.

**afield** [ə'fi:lд] *adv.* 1) dalada, maydonda, 2) uydan uzoqda, yo'lning chekkasida.

**afresh** [ə'freʃ] *adv.* yangidan, qaytadan.

**after-crop** ['a:ftəkrɒp] *n* *q.x.* ikkinchi hosil, ikkinchi o'rim.

**after-grass** ['a:ftəgra:s] *n* *q.x.* yangi o't, maysa.

**agaric** ['ægərik] *n bot.* qalpog'ining osti, burmali qo'ziqorin.

**agave** [ə'geivɪ] *n bot.* agava (*katta -katta bargli tropik o 'simlik*).

**aglet** ['æglət] *n bot.* bargak.

**agrarian** [ə'greəriən] *a agrar* (*yer va undan foydalanish masalalariga oid*).

**agricultural** [ægrɪ'kʌltʃərəl] *a* qishloq xo‘jaligiga oid.

**agriculture** ['ægrɪkʌltʃə] *n* qishloq xo‘jaligi.

**agriculturist** [,ægrɪ'kʌltʃərist] *a* agronom, yer mutaxassisi.

**agrimony** ['ægrɪməni] *n* bot. chakamug‘, alomatchoy.

**agrimotor** ['ægrɪ,məutə] *n* q.x. traktor.

**agrobiological** [,ægrəʊ,baiə'lɒdʒɪkəl] *a* agro-biologiyaga oid.

**agrobiologist** [,ægrəubai'lɒdʒɪst] *n* agrobiolog.

**agrobiology** [,ægrəubai'lɒdʒɪ] *n* agrobiologiya (*o‘simlikshunoslik va chorvachilikka oid aloqador biologik qonuniyatlarни o‘rganish*).

**agronomic** [,ægrə'nəmɪk] *a* agronomik.

**agronomics** [,ægrə'nəmɪks] *n* agronomiya (*qishloq xo‘jalik va ziroatchilik haqidagi fan*).

**agronomist** [ə'grənəmɪst] *n* agronom.

**agronomy** [ə'grənəmi] *n* q.x. dehqonchilik.

**agrostology** [,ægrə'stɒlədʒɪ] *n* o‘simlik hujayralari haqidagi fan.

**aheap** [ə'hi:p] *adv.* g‘aramda, to‘dada.

**air** [eə] 1. *n* 1) havo; 2) muhit; 2. *v* shamollatmoq.

**albumen** ['ælbjumin] *n* biol. oqsil, oqsil modda.

**albuminous** [æl'bju:minəs] *a* albumin yoki oqsil xususuyatiga ega bo‘lgan.

**alburnum** [al'bə:nəm] *n* po‘stloq osti qatlami (*daraxtning po‘stloq ostidagi yangi yog ‘och qismi*).

**alder** ['ɔ:ldə] *n* bot. olxa (*daraxti va butasi*).

**alfalfa** [æl'fælfə] *n* bot. beda.

**alga** ['ælgə] *n* dengiz suv o‘tlari.

**allogamy** [ə'lɒgəmi] *n* bot. chetdan changlanish.

**allspice** ['ɔ:lspaɪs] *n* bot. Yaman murchi.

**almond** ['a:mənd] *n* bot. bodom (*daraxti*).

**almondshaped** [,a:mənd'ʃeɪpt] *a* bodomsimon.

**aloe** ['æləu] *n* bot. aloe, sabur.

**alum** ['æləm] *n* achchiqtosh.

**amaranth** ['æmərænθ] *n bot.* amarant.

**amassment** [ə'mæsmənt] *n* uyum, g‘aram.

**ambit** ['æmbɪt] *n* tevarak, atrof-muhit, atrof.

**ambrosia** [æm'b्रəuziə] *n* asalari ovqati (*asalarining uyasiga gul changidan to ‘plagan asal bilan aralashgan ovqatlari*).

**amianthus** [,æmi'ænθəs] *n* tog‘ zig‘iri.

**ananas** [ə'na:nəs] *n bot.* ananas (*o‘tsimon tropik o‘simlik va uning xushbo‘y shirador hosili*).

**androgynous** [æn'drədʒɪnəs] *n bot.* ikki jinsli.

**anemone** [ə'neməni] *n bot.* ayiqtovon (*yovvoyi gullilar oilasiga mansub o‘t*).

**animal** ['æniməl] *n* hayvon; ~ **husbandry** chorvachilik; ~ **products** chorvachilik mahsulotlari.

**anise** ['ænis] *n bot.* arpabodiyon.

**anorganic** [,ænɔ:gænɪk] *a* noorganik.

**anther** ['ænθə] *n bot.* changdon.

**antirrhinum** [,æntɪ'rænməm] *n bot.* itog‘iz.

**aphides** ['eifidi:z] *n pl.* shira, o‘simlik biti.

**aphis** ['eifɪs] *n* shira, o‘simlik biti.

**apple** ['æpl] *n* olma.

**apple-grub** ['æplgrʌb] *n* 1) qurt; 2) qurt tushgan, yegan joy.

**apple-tree** ['æpl,tri:] *n* olma daraxti.

**apricot** ['eiprikət] *n* 1) o‘rik; 2) o‘rik daraxti.

**aqueous** ['eɪkwɪəs] *a* suvli, suvgaloid.

**arable** ['ærəbl] 1. *n* 1) haydalma yer; 2) chopiq; 2. *v* haydamoq.

**arachnid** [ə'ræknid] *n* o‘rgimchaksimonlar.

**arachnoid** [ə'ræknoɪd] *a bot.* o‘rgimchaksimon.

**arbor** ['ɑ:bɔ:] *n* daraxt.

**arboraceous** [,ɑ:bə'reɪʃəs] *a* daraxtsimon.

- arboreous** [ɑ:'bɔ:rɪəs] *n* serdaraxtzor.
- arboretum** [,a:bə'ri:təm] *n* [pl.-ta, - turns] ko‘chatxona.
- arboriculture** ['a:bərɪ,kʌltʃə] *n* o‘rmonshunoslik.
- arboriculturist** ['a:bərɪ,kʌltʃərist] *n* o‘rmonshunos.
- arbutus** [a:'bju:təs] *n bot.* yertut daraxti.
- arenaceous** [,ærɪ'neɪʃəs] *a* qumli, qumloq.
- argillaceous** [,a:dʒɪ'lɛɪʃəs] *a* tuproqli, tarkibiga tuproq qo‘shilgan, sertuproq.
- arid** ['ærɪd] *a* 1) quruq; 2) hosilsiz (*yer haqida*).
- aright** [ə'raɪt] *n bot.* qobiq, po‘choq.
- arnica** ['a:nɪkə] *n bot.* arnika (*dorivor o ‘simlik*).
- aromatic** [,ærəʊ'mætɪk] *a* xushbo‘y.
- artichoke** ['a:tɪʃəuk] *n bot.* artishok (*o ‘tsimon poliz o ‘simligi*).
- ash** ['æʃ] *n* 1) *bot.* shutmol; 2) kul.
- ash-key** ['æʃki:] *n bot.* qanotli urug‘.
- asp** [æsp] *n* 1) tog‘terak (*ansol*); 2) zool. qora ilon.
- asparagus** [əs'pærəgəs] *n bot.* sarsabil (*ko ‘p yillik sabzavot o ‘simligi*).
- aspen** ['æspən] *1. n bot.* tog‘terak; *2. a* tog‘terakka oid.
- aspidistra** [,æspi'distrə] *n bot.* Osiyo marvarid gulı.
- assort** [ə'sɔ:t] *v* tanlamoq, navlarga ajratmoq.
- assorted** [ə'sɔ:tɪd] *adj.* navlarga ajratilgan.
- assortment** [ə'sɔ:tmənt] *n* navlarga ajratish.
- aster** ['æstə] *n bot.* qo‘qongul.
- astragalus** [ə'strægələs] *n bot.* astragul (*dukkakli o ‘simlik*).
- attar** ['ætə] *n* efir moyi (*gullarda*).
- aubergine** ['əubədʒi:n] *n bot.* baqlajon.
- autumn** ['ɔ:təm] *1. n* kuz; **in** ~ kuzda; *2. attr* kuzgi, ~ **fruits** kuzgi mevalar.
- autumnal** [ɔ:'tʌmnəl] *a* kuzgi; ~ **leaves** kuzgi yaproqlar.
- aviculture** ['eivɪkʌltʃə] *n* parrandachilik.

**azote** [ə'zəut] *n* azot.

**azotic** [ə'zətik] *a* azotli, tarkibida azot bo‘lgan; ~ **acid** azot kislotasi.

## B b

**B, b** [bi:] *n* ingliz tili alifbosining ikkinchi harfi.

**baccy** ['bækɪ] *n* so ‘zl. tamaki (*tobacco so ‘zining qisqartmasi*).

**bachelor** ['bætsfələ] *n* 1) bo‘ydoq; 2) bakalavr (*eng kichik ilmiy daraja*).

**bacillus** [bə'siləs] *n* basilla (*tayoqcha shaklidagi bakteriya*).

**bacteriological** [bæk'tiəriə'lədʒikəl] *a* bakteriologiyaga oid, bakteriologik.

**bacteriologist** [bæk'tiəri'ɔlədʒist] *n* bakteriolog, bakteriologiya mutaxassisi.

**bacteriology** [bæk'tiəri'ɔlədʒi] *n* bakteriologiya.

**bacterium** [bæk'tiəriəm] *n pl.* bacteria; bakteriya, mikrob.

**badlands** ['bædlændz] *n pl. amer.* unumsiz yerlar.

**badness** ['bædnəs] *n* yaroqsizlik.

**bag** [bæg] 1. *n* 1) qop, sumka; 2. *v* 1) qopga solmoq; 2) o‘roq bilan o‘rmoq.

**bagger** ['bægə] *n* suv havzalarini chuqurlashtirib loy balchiqlarni chiqarib tashlaydigan mashina.

**bait** [beɪt] 1. *n* don, xo‘rak; 2. *v* xo‘rak qo‘ymoq.

**bald** [bɔ:ld] *a* taqir, hech narsa o‘smaydigan.

**bale** [beɪl] 1. *n* g‘aram, dasta; **cotton** ~ *s* paxta toyları; 2. *v* g‘aram qilmoq, toy qilib to‘plamoq.

**balmy** ['ba:mɪ] *a* xushbo‘y, muattar, hidi yaxshi.

**balsa** ['bɔ:lsə] *n bot.* balza (*daraxt*).

**bamboo** [bæm'bʊ:] *n bot.* bambuk.

**banana** [bə'nɑ:nə] *n* banan.

**banewort** ['beɪnwɜ:t] *n bot.* ayiqtovon.

**banian-tree** ['bæniəntri:] *n* hind anjiri (*daraxt*).

**banyan** ['bæniən] *n bot.* banian.

**baobab** ['beɪəubæb] *n bot.* baobab (*tanasi yo ‘g ‘on tropik daraxt*).

**barb** [ba:b] *n bot.* qiltiq, qiltanoq.

**barberry** ['ba:bərɪ] *n bot.* zirk (*daraxti va mevasi*).

**bark** [ba:k] 1. *n* daraxt po'stlog'i; 2. *v* daraxt po'stlog'ini shilib olmoq.

**barley** ['ba:li] *n bot.* arpa.

**barleycorn** ['ba:likɔ:n] *n* arpa doni.

**barley-water** ['ba:li, wɔ:tə] *n* arpa qaynatmasi.

**barling** ['ba:lin] *n* xodacha, tayoq.

**barm** [ba:m] *n* achitqi.

**barren** ['bærən] *a* hosilsiz (*yer*).

**basil** ['bæzl] *n bot.* rayhon.

**bass-wood** ['bæswud] *n* joka (*lipa*) daraxti.

**bast** [bæst] *n* tola, po'stloq (*kanop, zig 'ir va shu kabi o 'simliklar poyasining tolasti*).

**baste** [beist] *v* urmoq, yanchmoq.

**batata** [bæ'ta:tə] *n* bata (*janub o 'simligining bir turi va uning kartoshka ta'mli shirin ildiz mevasi*).

**bay** [bei] *n* dafna daraxti.

**bean** [bi:n] *n* loviya.

**beanpod** ['bi:npəd] *n* loviya dukkagi.

**bedabble** [br'dæbl] *v* ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq, suv purkamoq.

**bedew** [br'dju:] *v* maydalab sepmoq.

**beech** [bi:ʃ] *n* qoraqayin, buk daraxti.

**beegarden** ['bi:, ga:dn] *n* asalari qutilari qo'yilgan joy, asalari xo'jaligi.

**beet** [bi:t] *n* lavlagi.

**beetroot** ['bi:tru:t] *n* qand lavlagi.

**belated** [br'leitid] *a* kechikkan, kechki.

**bellflower** ['bel, flauə] *n bot.* qo'ng'iroqgul.

**benthos** ['benθɔ:s] *n* bentos (*dengiz osti jonivorlari va o 'simliklari*).

- berry** ['berı] *n* reza meva (*qulupnay, maymunjon kabi buta va ularning mevalari*).
- biennial** [baɪ'eniəl] 1. *n* ikki yillik o'simlik; 2. *a* ikki yillik.
- bigg** [big] *n* qatorli arpa.
- bilberry** ['bılbəri] *n* bot. semichka (*butasi va mevasi*).
- bindweed** ['baɪndwi:d] *n* bot. pechak o't.
- biodegradable** [,baɪəʊdɪ'greɪdəbəl] *a* tabiiy eskiradigan, chiriydigan.
- biologist** [baɪ'ɔ:lədʒɪst] *n* biolog, biologiya mutaxassisi.
- biology** [baɪ'ɔ:lədʒɪ] *n* biologiya.
- birch** [bə:tʃ] 1. *n* bot. oqqayin; 2. *attr.* qayinga oid; 3. *v* xipchin bilan savalamoq.
- birchen** ['bə:tʃən] *a* qayinga oid, qayindan qilingan.
- bird** [bə:d] *n* qush.
- bird`s-eye** ['bə:dzai] *n* bot. navro'zgul.
- biting** ['baɪtɪŋ] *a* o'tkir achituvchi.
- blackberry** ['blæk'bəri] *n* maymunjon (*butasi va mevasi*).
- blackcap** ['blækkæp] *n* qora malina (*butasi va mevasi*).
- blackcurrant** ['blæk'kʌrənt] *n* qora qorag'at.
- blackearth** ['blæk,ə:θ] *n* qora tuproq.
- blackthorn** ['blækθɔ:n] *n* bot. tikanli olxo'ri.
- blaze** [bleɪz] 1. *n* 1) alanga; 2) qashqa (*hayvonlarning peshonasida*); 3) belgi (*daraxtda*); 2. *v* 1) alanga bilan yonmoq; 2) daraxtga belgi qo'ymoq.
- blewits** ['blu:its] *n* bot. qalpoqchali qo'ziqorin.
- blight** [blaɪt] 1. *n* o'simlik kasalligi; 2. *v* zarar yetkazmoq.
- blister fly** ['blɪstə,flaɪ] *n* daraxt va butalarni zararlayotgan qo'ng'izcha.
- bloodworm** ['blʌdwə:m] *n* qizil chuvalchang.
- bloom** [blu:m] 1. *n* gul, gullah; 2. *v* gullamoq.
- blooming** ['blu:min] *a* gullayotgan.
- blossom** ['blɒsəm] 1. *n* gul, gullah; 2. *v* gullamoq.
- blow** [bləu] (**blew, blown**) *v* gullamoq, esmoq (*shamol*).
- blowball** ['bləubɔ:l] *n* qoqi o't, momaqaymoq.
- blowy** ['bləui] *a* shamolli (*ob-havo*).

**blue** [blu:] *a* ko‘k, zangori, moviy.

**bluebell** ['blu:bel] *n bot.* qo‘ng‘iroqgul.

**bluebottle** ['blu:, bɔtl] *n bot.* bo‘tako‘z.

**bluet** ['blu:it] *n bot.* bo‘tako‘z.

**bog** ['bɔg] *n* botqoq.

**bogberry** ['bɔg, berı] *n* klyukva (*qizil, nordon mevali buta va uning nordon mevasi*).

**boggy** ['bɔgı] *n* botqoqlik, serbotqoq.

**boletus** [bəu'li:təs] *n* qo‘ziqorin, zamburug‘.

**boscage** ['bɔskidʒ] *n shoir.* kichkina o‘rmon, daraxtzor.

**botanical** [bə'tænikl] *a* botanikaga oid.

**botanist** ['bɔtənist] *n* botanik.

**botany** ['bɔtənɪ] *n* botanika.

**bottomland** ['bɔtəmlænd] *n amer.* vodiy.

**bough** [bau] *n* shoxcha, xivich.

**brackish** ['brækɪʃ] *a* sho‘rroq (*suv haqida*).

**bramble** ['bræmpl] *n bot.* maymunjon.

**branch** [bra:nʃ] *n* 1) shoxcha; 2) filial, bo‘lim.

**branchy** ['bra:nʃɪ] *a* sershox.

**bread** [bred] *n* 1) non; ~ **and butter** buterbrod; 2) ovqat.

**breadcrumb** ['bredkrʌm] *n* nonning uvog‘i.

**bread-stuffs** ['bredstʌf] *n* bug‘doy, un.

**breakfast** ['brekfəst] 1. *n* nonushta; 2. *v* nonushta qilmoq.

**breath** [breθ] 1. *n* nafas; 2. *v* nafas chiqarmoq, nafas olmoq.

**breather** ['bri:ðə] *n* tirik mavjudot.

**breathing** ['bri:ðɪŋ] *n* nafas olish.

**breed** [bri:d] *n* 1) nasl; 2) avlod.

**breed** [bri:d] *v* (**bred**, **bred**) 1) tarbiyalamoq; 2) *v* boqib ko‘paytirmoq (*hayvonlarni*).

**breeder** ['bri:də] *n* *q.x.* selektsioner (o'simlik navlari va *hayvonlarni zotini yaratuvchi shaxs*); **cattle** ~ podachi; **sheep** ~ cho'pon.

**breeding** ['bri:dɪŋ] *n* ko'paytirish (o'simlik va *hayvonlarni*); **cattle** ~ chorvachilik; **sheep** ~ qo'ychilik.

**breeze** [bri:z] *1. n* 1) yengil shabada; 2) sona, pashsha; *2. v* esmoq, esib turmoq.

**brier** ['braɪə] *n* na'matak, itburun.

**briery** ['braɪərɪ] *a* tikanli.

**brindled** ['brɪndld] *a* 1) ola-bula, xol-xol, ola-chipor.

**brook** [bruk] *n* kichkina ariq.

**brushwood** ['brʌʃwud] *n* chakalakzor, butazor.

**buck-eye** ['bʌkɔɪ] *n* soxta kashtan.

**buckthorn** ['bʌkθɔ:n] *n bot.* itshumurt.

**buckwheat** ['bʌkwi:t] *1. n* marjumak (*g'alla ekinlarining bir turi va uning doni*); *2. attr.* marjumakdan qilingan.

**bud** [bʌd] *1. n* kurtak, g'uncha; *2. v* nish urmoq, kurtak chiqarmoq.

**bulb** [bʌlb] *n bot.* piyoz.

**bulbous** ['bʌlbəs] *a* piyozli, piyoz shaklidagi.

**bur** [bə:] *n* tikan, tikanak.

**burdock** ['bə:dək] *n bot.* qariqiz va uning bargi.

**surgeon** ['bə:dʒən] *1. n* g'uncha, nihol, kurtak; *2. v* barg yozmoq, kurtak yozmoq.

**bush** [buʃ] *n* buta, tup.

**bushwhack** ['buʃwæk] *v* chakalakzorni tozalamoq.

**bushy** ['buʃɪ] *1. n* buta; *2. a* baroq, serjun.

**buttercup** ['bʌtəkʌp] *n bot.* ayiqtovon.

## C c

**C, c** [si:] *n* 1) ingliz tili alifbosining uchinchi harfi; *2. amer.* yuz dollar.

**cabbage** ['kæbɪdʒ] *1. n* karam; *2. attr* karamdan qilingan, karamli; *3. v* bosh o'ramoq (*karamda*).

**cabbage-head** ['kæbɪdʒ hed] *n* karamning boshi.

- cabbage-rose** ['kæbɪdʒ,rəuz] *n bot.* yuzbarg (*sadbarg*) atirgul.
- cacao** [kæ'ka:ou] *n* 1) kakao daraxti; 2) kakao (*doni va ichimligi*).
- cactus** ['kæktəs] *n* kaktus.
- cactaceous** [kæk'teɪʃəs] *a bot.* kaktusga oid.
- cade** [keɪd] *n* 1) archa, qora archa; 2) qo‘lga o‘rgatilgan qo‘zichoq.
- caduceus** [kə'dju:sɪəs] *a bot.* erta to‘kiladigan.
- calabash** ['kæləbæʃ] *n bot.* suvqovoq, chilim.
- calendula** [kə'lendjələ] *n bot.* gulhamishabahor.
- callus** ['kæləs] *n bot.* bo‘qoq, (*bo ‘qoq daraxti*).
- cambium** ['kæmbiəm] *n bot.* kambiy (*o ‘simlik po ‘stlog ‘i ostidagi hujayralardan iborat to ‘qima*).
- camellia** [kə'mi:liə] *n bot.* kameliya (*doim yashil buta yoki daraxt va uning oq yoki qizil yirik xushbo ‘y gulı*).
- camomile** ['kæməmail] *n bot.* moychechak
- campanula** [kəm'pænjulə] *n bot.* qo‘ng‘iroqgul
- campestral** [kæm'pestrəl] *a* dalaga oid
- candytuft** ['kænditʌft] *n bot.* soyabongullilar.
- cane** [keɪn] 1. *n* qamish; 2. *v* xivchin bilan savalamoq, urmoq.
- cane-brake** ['keɪn breɪk] *n* qamishzor.
- cane-sugar** ['kæn fʊgə] *n* shakarqamish.
- canker** ['kæŋkə] 1. *n* qurt tushgan joy, qurt teshgan, yegan joy; 2. *v* o‘ymoq, kemirmoq.
- cannabic** ['kænəbɪk] *a* nasha o‘simligiga oid, kanopdan qilingan.
- cantoloup(e)** ['kæntəlu:p] *n* kantalupa (*qovun navi*).
- cany** ['keɪnɪ] *a* qamishdan qilingan.
- capsicum** ['kæpsɪkəm] *n* qalampir, butun garmdori.
- caraway** ['karəwei] *n bot.* zira (*o ‘simlik va uning doni*).
- carnation** [ka:'neɪʃn] *n bot.* chinnigul.
- carrot** ['kærət] *n* sabzi.

- cashew** ['kæʃu:] *n bot.* anakord (*janubiy Amerikada o ‘sadigan daraxt turi*).
- cassia** ['kæsiə] *n bot.* kassiya. (*surgi dori sifatida ishlatiladigan dukkaklilar oilasiga mansub o ‘simlik doni va barglari*).
- castor oil** [,ka:stə ɔɪl] *n* kanakunjut moyi.
- catchment** ['kætmənt] *n tex.* drenaj (*yerning zaxini qochirish*).
- catchment-area** ['kætmənt,eəriə] *n* suv to‘plash joyi, sun’iy ko‘l.
- catkin** ['kætkin] *n bot.* bargak, kuchala (*daraxtlarda*).
- cat-mint** ['kætmint] *n bot.* cho‘l yalpizi.
- caulescent** [kɔ:'lesənt] *a bot.* poyadan chiqqan, poyali, poyasi bor.
- cauliflower** ['kɒlɪ\_,flauə] *n* gulkaram.
- cayenne** [kei'en] *n* qizil qalampir.
- cedar** ['si:də] *n bot.* kedr (*ignabargli doim yashil yirik daraxt*).
- celandine** ['seləndain] *n bot.* qoncho‘p (*xalq tabobatida ba’zi teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan ko ‘p yillik o ‘simlik*).
- celery** ['seləri] *n bot.* celderey (*kashnichsimon oshko ‘k*).
- celery cabbage** ['seləri, kæbidʒ] *n bot.* xitoy karami.
- celtuce** ['seltəs] *n* celderey bilan salatning chatishmasi.
- century plant** ['sentʃəri,pla:nt] *n bot.* aloe, sabur (*o ‘simlik*).
- cereal** ['sɪəriəl] *n* boshoqli g‘alla o‘simligi.
- chaff** [tʃa:f] 1. *n* 1) to‘pon; 2) maydalangan somon; 2) *v* maydalamoq, chopmoq (*poxolni*).
- chaff-cutter** ['ʃa:f,kʌtə] *n q.x.* poxol qirqqich (*poxol, beda, pichan qirqadigan mashina*).
- chain** [tʃeɪn] 1. *n* zanjir; 2. *v* zanjirlamoq.
- champignon** [ʃæm'pi:njən] *n bot.* shampinion (*qo ‘ziqorinning bir turi*).
- channel** ['tʃænəl] 1. *n* kanal; 2. *v* kanal qazimoq.
- chaparral** [tʃæpə'ræl] *n amer.* tikanli buta.
- charlock** ['ʃa:lɒk] *n bot.* yovvoyi xantal (*o ‘simlik*).
- checkrow** ['ʃekrəu] *n q.x.* kvadrat, uyalab ekish.
- cherry** ['ʃeri] *n* olcha.

- cherrystone** ['tʃeristəun] *n* olcha danagi.
- cherry-tree** ['tʃeritri:] *n* olcha daraxti.
- cherrywood** ['tʃeriwud] *n bot.* kalina dikaya;
- chestnut** ['tʃesnʌt] *n bot.* kashtan (*qoraqayinlar oilasiga mansub daraxt va uning yong 'og'i*).
- chickpea** ['tʃikpi:] *n bot.* turk no'xati.
- chickweed** ['tʃikwi:d] *n bot.* qum o't (*qumda bo'ladigan bargli o'simlik nomi*).
- chicory** ['tʃikərɪ] *n bot.* sachratqi (*o'simlik*).
- chilli** ['tʃili] *n isp. bot.* qizil garmdori.
- chit** [tʃit] 1. *n* nish, nihol; 2. *v* nish urmoq.
- chive** [tʃaɪv] *n bot.* nish piyozi.
- chlorophyll** ['klɔ:rəfil] *n bot.* xlorofil (*o'simliklarga yashil rang berib turuvchi modda*).
- chlorosis** [klɔ:rəʊsɪs] *n bot.* rangsizlik, o'z rangini yo'qotish (*o'simliklarga xlorofil moddasi yetishmaganligi sababli hosil bo'lgan kasallik*).
- chrysanthemum** [krə'sænθɪməm] *n bot.* xrisantema.
- cinchona** [sɪŋ'kəunə] *n bot.* xinin daraxti (*Janubiy Amerikada o'sadigan po 'stlog'ida xinin bo'lgan daraxt*).
- cinnamon** ['sɪnəmən] *n* dolchin.
- citrus** ['sɪtrəs] *n bot.* sitrus (*apelsin, limon, mandarin kabi o'simliklar*).
- clay** [kleɪ] *n* 1) loy; 2) sho'rhok, tuproq.
- clayey** ['kleɪɪ] *a* loyli, loy tuproqli.
- clearing** ['klɪərɪŋ] *n* daraxtzor ichidagi daraxtsiz maydon.
- clematis** ['klemətɪs] *n bot.* ilono't, ilonpechak.
- climate** ['klaimət] *n* iqlim.
- clingstone** ['klɪŋstəun] *n* danagi ajralmaydigan shaftoli.
- clod** [kləd] *n* yumaloqlangan tuproq (*kesak*).
- close-grained** [,kləus'greɪnd] *a* mayda danakli.
- cloud** [klaud] 1. *n* bulut; 2. *v* bulut bilan qoplamoq.
- cloudberry** ['klaudbərɪ] *n bot.* xushbo'y mevali botqoq o'simligi va uning mevasi.

- clove** [kləuv] *n* qalampirmunchoq.
- clove** [kləuv] *n* sarimsoqpiyoz pallachasi.
- clover** ['kləuvə] *n* beda (*yo 'ng 'ichqa*).
- coarse-grained** [,kɔ:s'greind] *a* yirik danakli.
- cobnut** ['kɔbnʌt] *n* bot. funduk (*Kavkaz va Qrimda o 'sadigan yong 'oq daraxti*).
- cock** [kɔk] 1. *n* g‘aram, to‘p, uyum; 2. *v* xashakni g‘aramlamоq, to‘plamoq.
- cockle** ['kɔkl] *n* bot. randak (*sariq gulli yovvoyi o 't*).
- cockshead** ['kɔkshed] *n* bot. esparset (*ozuqabop dukkakli o 'simlik*).
- coco** ['kəukəu] *n* kakos palmasi (*doim yashil janub daraxti*).
- cocoa** ['kəukəu] *n* kakao (*shokolad daraxtining urug'i, doni va kukuni*).
- coconut** ['kəukənʌt] *n* kokos, kokos yong’og'i.
- coconut-tree** ['kəukənʌt,tri:] *n* kokos palmasi.
- coffee** ['kɔfi] *n* qahva.
- coffee bean** ['kɔfi,bi:n] *n* qahva dukkagi.
- cole** [kəul] *n* karam.
- colerape** ['kəulreip] *n* sholg‘omkaram (*tusi, mazasi sholg‘omga uxshagan karam*).
- coleseed** ['kəulsi:d] *n* bot. dala karami.
- collective farm** [kə'lektiv'fa:m] *n* jamoa xo‘jalik.
- colter** ['kəultə] *n* q.x. chimqirqar.
- colza** ['kɔlzə] *n* bot surepisa, raps.
- cone** [kəun] *n* bot. so‘ta (*ignabargli daraxtlarning so‘tasimon to‘p guli*).
- congou** ['kɔŋgəu] *n* kongou (*Xitoy qora choyining bir navi*).
- conifer** ['kɔnifə] *n* ignabargli daraxt.
- coniferous** [kə'nifərəs] *a* bot. ignabargli daraxtga oid, ignabargli daraxtdan olingan.
- coppice** ['kɔpis] *n* 1) kichkina o‘rmon; 2) o‘rmondagi butalar.
- copse** [kɔps] *n* o‘rmondagi butalar (*etilmagan daraxtlar*).
- corn** [kɔ:n] *n* g‘alla, don.
- corncob** ['kɔ:nkɔb] *n* makkajo‘xori so‘tasi, dumbul.

- cornfield** ['kɔ:nfi:ld] *n amer.* makkajo‘xori dalasi.
- cornfloor** ['kɔ:nflɔ:] *n* xirmon.
- cornflour** ['kɔ:nflauə] *n* makkajo‘xori uni.
- cornflower** ['kɔ:nflauə] *n bot.* butako‘z.
- corny** ['kɔ:ni] *a* g‘allaga oid.
- corolla** [kə'rɔlə] *n bot.* gultoj.
- cortex** ['kɔ:teks] *n bot.* po‘stloq, po‘st, qobiq.
- corymb** ['kɔrimb] *n bot.* yassi to‘pgul.
- cotton** ['kɔtn] *n* paxta.
- cotton cake** ['kɔtn,keik] *n q.x.* chigit kunjarasi.
- cotton picker** ['kɔtn,pikə] *n* 1) paxta terish mashinasi; 2) paxta teruvchi.
- cotton plant** ['kɔtn,pla:nt] *n* g‘o‘za.
- cotton planter** ['kɔtn,pla:ntə] *n* paxtakor.
- cottonwool** ['kɔtn,wul] *n* momiq tola.
- cottony** ['kɔtni] *a* paxtadan qilingan.
- cotyledon** [,kɔtɪ'li:dn] *n bot.* urug‘ palla, urug‘ning bir pallasi.
- coulter** ['kəultə] *n q.x.* plugning tishi.
- cowberry** ['kaubəri] *n bot.* brusnika (*butasi va mevasi*).
- cranberry** ['krænbəri] *n bot.* klukva (*qizil, nordon mevali buta va uning mevasi*).
- cranesbill** ['krænzbil] *n bot.* yorongul.
- creeper** ['kri:pə] *n* yer bag‘irlab o‘sadigan o‘simlik.
- crop** [krɔp] 1. *n* hosil; 2. *v* hosilni yig‘moq.
- cropper** ['krɔpə] *n q.x.* o‘roqchi.
- crop plants** ['krɔp,pla:nts] *n* boshoqli g‘alla o‘simliklari.
- crossbred** ['krɔsbred] *a* chatishtirilgan.
- crossbreed** ['krɔsbri:d] *n* duragay, chatishma.
- crotch** [krɔf] 1. *n* ayri (*poyashox yoki daraxtlarda*); 2. *v* kesishtirmoq.
- crowfoot** ['krəufut] *n bot.* ayiqtovon.

**cruciferous** [kru:'sifərəs] *a bot.* krestgulli.

**crude** [kru:d] *a* pishmagan, xom.

**crudity** ['kru:dətɪ] *n* pishmaganlik, xomlik.

**cucumber** ['kjukʌmbə] *n* bodring.

**cultivate** ['kʌltɪveɪt] *v q.x.* yerni haydamoq, yerga ishlov bermoq, o'stirmoq, etishtirmoq.

**cultivated** ['kʌltɪveɪtɪd] *a q.x.* ishlov berilgan.

**cultivation** [,kʌltɪ'veɪʃn] *n q.x.* 1) ishlov berish; 2) o'stirish, etishtirish.

**cultivator** ['kʌltɪveɪtə] *n* 1) dehqon, ziroatchi; 2) *q.x.* kultivator (*haydalgan yerkarni yumshatish, begona o'tlarni yuqotish va ekin qatori oralariga ishlov berish uchun xizmat qiladigan qishloq xo'jalik mashinasi*).

**cumin** ['kʌmin] *n* zira (*o'simlik va uning urug'i*).

**currant** ['kʌrənt] *n* 1) smorodina, qorag'at (*butasi yoki mevasi*); 2) korinka (*qora kishmish navi*).

**cut** [kʌt] *v (cut, cut)* kesmoq, qirqmoq to'g'ramoq.

**cutting area** ['kʌtɪŋ,eəriə] *n* o'rmonning daraxt kesiladigan joyi.

**cyclamen** ['sɪkləmən] *n* siklamen (*Alp binafshasi*).

**cyme** [saɪm] *n bot.* to'pgul.

**cypress** ['saɪprəs] *n bot.* sarv.

## D d

**D, d** [di:] *n* ingliz tili alifbosining to'rtinchi harfi.

**daffodil** ['dæfədɪl] *n bot.* nargizgul.

**dahlia** ['deɪliə] *n bot.* kartoshkagul.

**dairy farm** ['deərɪ,fɑ:m] *n* sutchilik xo'jaligi; ~ **maid** sut sog'uvchi; ~ **man** ferma ishchisi.

**dasied** ['deɪzɪd] *a* dastorgul bilan qoplangan.

**daisy** ['deɪzi] *n bot.* dastorgul.

**dale** [deɪl] *n* vodiy.

**damp** [dæmp] 1. *a* namlik, zaxlik, ho‘llik; 2. *n* nam, ho‘l, zax; 3. *v* ho‘llamoq, zaxlamoq, ivitmoq.

**damson** ['dæmzən] *n* tikan olxo‘ri.

**dandelion** ['dændilaiən] *n bot.* momaqoymoq, qoqio‘t.

**daphe** ['dæfni] *n bot.* mevasi zaharli buta.

**darnel** ['da:nl] *n bot.* mastak (*begona o ‘t*).

**date-palm** [deɪt,pa:m] *n* xurmo daraxti.

**datura** [də'tjuərə] *n bot.* bangidevona.

**day-lily** ['deɪ,lili] *n bot.* lolagul.

**deadwood** ['dedwud] *n* qurib qolgan daraxt.

**decaphyllous** [,dekə'filəs] *a bot.* o‘n bargli o‘simlik.

**deciduous** [dr'sɪdjuəs] *a bot.* bargi to‘kilayotgan (*daraxt haqida*).

**decorticate** [dr'kɔ:tikeɪt] *v* yulib olmoq, uzib olmoq, shilib olmoq (*po ‘st, po ‘stloq va boshqalar*).

**deflorate** [dr'flɔ:rit] *a* gullab bo‘lgan, guldan tushgan.

**defloration** [,diflɔ:’reɪʃn] *n* gullarini tushirish.

**deflower** [di:’flauə] *v* gullarni uzmoq, yulmoq.

**defoliate** [,dr'fəulɪet] 1. *a* barglarini tushirgan, bargsiz; 2. *v* barglarini tushirmoq, o‘simliklarni yo‘q qilmoq.

**defoliation** [,difəulɪ'eɪʃn] *n* xazonrezgilik, xazonrez.

**deforest** [dr'fɔ:rist] *v* o‘rmondagи daraxtlarni kesmoq, o‘rmonni yo‘q qilmoq.

**degradation** [,degrə'deɪʃn] *n* biologik naslning buzilishi.

**dehisce** [dr'hɪs] *v* ochilmoq, yorilib chiqmoq (*ko ‘sak haqida*).

**dehiscent** [dr'hɪsnt] *a* ochilayotgan (*ko ‘sak haqida*).

**dell** [del] *n* o‘rmonli vodiylar.

**delphinium** [del'finiəm] *n bot.* delfinium.

**dendriform** ['dendrifɔ:m] *a* daraxtga o‘xshagan, daraxtsimon.

**dendrology** [den'drɔ:lədʒi] *n* dendrologiya (*botanikaning daraxt va butalar haqidagi bo ‘limi*).

**dew** [dju:] 1. *n* shudring, shabnam; 2. *v* sug‘ormoq.

- dewy** ['dju:i] *a* shudring bosgan, shudring tushgan.
- dicotyledon** [ ,daɪ,kɔt'li:dn] *n bot.* ikki pallali (*urug 'i, doni ikki pallali*) o'simlik.
- dill** [dɪl] *n* ukrop, shivit.
- dioecious** [dai'i:ʃəs] *a bot.* ikki uyali.
- disafforest** [ ,dɪsə'fɔrist] *v* daraxtlarni kesib o'rmonni yo'q qilmoq.
- disboscation** [ ,dɪsbəs'keɪʃn] *n q.x.* daraxtlarni kesish, o'rmonzorni shudgorga aylantirish.
- disbranch** [dɪs'bra:nʃ] *v* novdalarni qirqib tashlamoq.
- disbud** [dɪs'bʌd] *v* ortiqcha kurtaklarni kesib tashlamoq.
- dishorn** [dɪs'hɔ:n] *v* shoxni kesib olmoq.
- displant** [dɪs'pla:nt] *v* ko'chirib o'tqazmoq (*o 'simlikni*), ildizi bilan sug'urmoq (*o 'simlikni*).
- disroot** [dɪs'ru:t] *v* ildizi bilan sug'urib olmoq, tag-tomiri bilan quritmoq (*ko 'chatni*).
- distichous** ['distikəs] *a bot.* ikki qatorli, ikki qator qilib joylamoq.
- divot** ['dɪvət] *n* chim, chimzor.
- dock** [dɔk] *n bot.* shovul.
- doddered** ['dɒdəd] *a* bargi tukilgan (*daraxtlar haqida*).
- dogbane** ['dɒgbɛɪn] *n bot.* kendir (*tolali ko 'p yillik o 'tsimon o 'simlik*).
- dogberry** ['dɒgberɪ] *n bot.* ituzum (*yeb bo 'lmaydigan mayda mevali o 'simlik*).
- dogrose** ['dɒg,rəʊz] *n bot.* na'matak, itburun.
- dog's-grass** ['dɒgzgra:s] *n bot.* yerga yoyilib o'sadigan g'allasimon o'simlik.
- dog-violet** ['dɒg,vaiəlit] *n bot.* yovvoyi binafsha.
- dogwood** ['dɒgwud] *n bot.* kizilnik, irg'ay (*qızıl mevali buta va uning nordon mevasi*).
- domain** [dəu'meɪn] *n* mulk, yer-suv.
- downfall** ['daunfɔ:l] *n* jala, sharros yomg'ir.
- drain** [dreɪn] *v* quritmoq, zaxini qochirmoq (*yerni*).
- drainage** ['dreɪnidʒ] *n* yerning zaxini qochirish, quritish.
- dried** [draɪd] *a* quritilgan qoqi.

**drill** [drɪl] 1. *n* 1) *q.x.* qatorlab ekish; 2) egat, ariq, jo‘ya; 2. *v* qatorlab ekmoq.

**drug** [drʌg] *n* 1) dori-darmon; 2) giyohvand modda; ~ **plant** dorivor o‘simlik.

**drupaceous** [dru:’peɪʃəs] *a bot.* danaklilar (*meva to ‘g ‘risida*).

**drupe** [dru:p] *n bot.* danakli meva.

**drupel (et)** ['dru:pl(it)] *n bot.* danak.

**duckweed** ['dʌkwi:d] *n bot.* baqato‘n

**dung I** [dʌŋ] *n* o‘g‘it, go‘ng.

**dung II** [dʌŋ] *v* o‘g‘itlamoq, go‘ng solmoq.

**duramen** [djuə'reimen] *n bot.* o‘zak, negiz.

## E e

**E, e** [i:] *n* ingliz tili alifbosining beshinchi harfi.

**ear** [ɪə] 1. *n* 1) qulqoq; 2) boshoq, makkajo‘xori; 2. *v* boshoqlamoq, boshoq chiqarmoq.

**earth** [ə:θ] 1. *n* 1) yer, yer shari; 2) yer, tuproq; 2. *v* chopmoq, yerni chopiq qilmoq, egat olmoq.

**earthen** ['ə:θn] *a* tuproqli, loyli.

**earthenware** ['ɜ:nweə] *n* loy, tuproq.

**earthnut** ['ə:θnʌt] *n* yeryong‘oq.

**earthy** ['ə:θɪ] *a* yerga oid, sertuproq.

**ebony I** ['ebəni] *n bot.* qora yoki obnus daraxti.

**ebony II** ['ebəni] *a* qora yoki obnus daraxtidan qilingan.

**edaphology** [,edə'fɔlədʒi] *n* tuproqshunoslik.

**eddish** ['edɪʃ] *n q.x.* yangi o‘t, maysa.

**edelweiss** ['eidlvaɪs] *n bot.* edelweys (*murakkabdoslar oilasiga mansub ko ‘p yillik tog ‘o ‘simligi va uning guli*).

**effloresce** [,eflɔ:'res] *v* gullay boshlamoq, gulga kirmoq, ochilmoq.

**efflorescence** [,eflɔ:'resns] *n* gullah, gul chiqarish, gullah mavsumi.

**eggplant** ['egpla:nt] *n* baqlajon.

**eglantine** ['egləntain] *n* na'matak, itburun.

**elm** [elm] *n bot.* qayrag'och, bujum.

**emaciated** [ɪ'meɪʃeɪtɪd] *a* holdan toygan; ~ **soil** oriq yer.

**embankment** [ɪm'bra:nfɪmənt] *n* shox, butoq, novda.

**endive** ['endiv] *n* sachratqi.

**ensilage** ['ensɪlɪdʒ] *n* silos tayyorlash, ~ **harvester** silos yig'ish kombayni.

**ensile** [en'sail] *v q.x.* silos bostirmoq.

**environment** [ɪn'verərənmənt] *n* atrof-muhit.

**epithelium** [epɪ'θi:lɪəm] *n* (pl-ia) epiteliy to'qimasi (*odam, hayvon va o'simlik a'zolarini sirtdan qoplab turuvchi to'qima*).

**equable** ['ekwəbl] *a* bab-baravar, bir xil ~ **climate** bir xil iqlim.

**eradicate** [ɪ'rædɪkeɪt] *v* ildizi bilan yilib tashlamoq.

**ergot** ['ə:gət] *n* qorakuya, qorakosov (*g'alla o'simliklari boshida hosil bo'ladigan zaharli qora zamburug'lar*).

**erica** ['erɪkə] *n* bot archagul, archagulga oid.

**evaporate** [ɪ'væpəreɪt] *v* bug'lamoq, bug'ga aylantirmoq.

**evaporation** [ɪ,væpə'reɪʃn] *n* bug'lantirish, bug'ga aylantirish.

**evaporative** [ɪ'væpərətɪv] *a* bug' hosil qiladigan.

## F f

**F, f** [ef] *n* ingliz tili alifbosining oltinchi harfi.

**faculty** ['fækəlti] *n* 1) qobiliyat, iste'dod; 2) fakultet, bo'lim.

**fade** [feɪd] *v* qurimoq, sekin-asta yo'q bo'lmoq; **summers ~ s into autumn** yoz asta-sekin kuzga aylanmoqda.

**faggot** ['fægət] 1. *n* bog‘, bog'lash; 2. *v* shox-shabbalarni bir bog'lam qilib bog'lamoq.

**fallow** ['fæləu] 1. *n q.x.* ekilmagan, dam berib qo'yilgan yer; 2. *v* shudgor qilmoq.

**fan** [fæn] *v* yelpimoq, yelpib tozalamoq (*donni*).

**fanner** ['fænə] *n* shamol mashina (*donni soviradigan mashina*).

**farina** [fə'ri:nə] *n* 1) un; 2) kraxmal; 3) q.x. gul changi.

**farm** [fa:m] *n* 1) ferma, xo‘jalik; **collective** ~ jamoa xo‘jaligi; 2) dehqon xo‘jaligi.

**farm** [fa:m] *v* qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmoq, yerga ishlov bermoq.

**farmer** ['fa:mə] *n* fermer; **cattle** ~ chorvador; **collective** ~ jamoa xo‘jaligida ishlovchi kishi.

**farmhand** ['fa:mhænd] *n* qishloq xo‘jaligi ishchisi.

**farming** ['fa:miŋ] *n* 1) qishloq xo‘jaligi; 2) qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanish, dehqonchilik.

**fascicle** ['fæsɪkl] *n* bot. bir bog‘, bir bosh, bir shingil.

**fascine** [fæ'si:n] *n* shox-shabba yoki qamish bog‘lami.

**fat** [fæt] 1. *n* yog‘, moy; **vegetable** ~ o‘simlik yog‘i; 2. *a* hosildor, semiz (*yer*).

**fatigue** [fə'ti:g] *n* q.x. oriqlash (*yerning*).

**fauna** ['fɔ:nə] *n* fauna (*hayvonot dunyosi*).

**feather grass** ['feðəgra:s] *n* bot. kovil, chalov.

**fecund** ['fekənd] *a* unumdor, hosildor.

**fecundate** ['fekəndeɪt] *v* hosildor qilmoq.

**fecundity** [fɪ'kʌndɪtɪ] *n* unumdorlik, hosildorlik.

**feeder** ['fi:də] *n* q.x. ozuqa, ekin.

**feedstuff** ['fi:dstʌf] *n* xashak, pichan, yem, ozuqa, don.

**fell** [fel] 1. *n* kesish, daraxt kesish; 2. *v* kesmoq, yormoq, chopmoq, arralamoq.

**felling** ['feliŋ] *n* o‘rmon kesish.

**fen** [fen] *n* botqoqlik, ~ **grass** botqoq o‘ti.

**fennel** ['fenl] *n* bot. arpabodiyon (*efir moyli dorivor o‘simlik soyabonguldoshlar oilasiga mansub*).

**fern** [fə:n] *n* bot. qirqquloq.

**fernery** ['fə:nərɪ] *n* qirqquloqlar o‘stiriladigan joy.

**ferny** ['fə:nɪ] *a* bot. qirqquloqdoshlar, qirqquloqsimonlar.

**fertile** ['fə:taɪl] *a* unumdor, serhosil, hosildor.

**fertility** [fə:'tlətɪ] *n* unumdorlik, hosildorlik, seroblik.

**fertilization** [fə:tɪləz'eɪʃn] *n* q.x. o‘g‘itlash, o‘g‘it solish.

**fertilize** ['fə:tlaɪz] *v* o‘g‘itlamoq, o‘g‘it solmoq.

**fertilizer** ['fə:tlaɪzə] *n* o‘g‘it, go‘ng.

**fescue** ['feskju:] *n* bot. betaga (*g‘allasimon o‘simlik*).

**festoon** [fes'tu:n] *n* gul (*barg, gul, novda va shu kabilar*).

**field** [fi:ld] *n* dala, o‘tzor, ekinzor; ~ of wheat bug‘doyzor; **flowers of the ~** dala gullari.

**field crops** ['fi:ld,krəps] *n pl.* q.x. dala ekinlari, dala ishlari.

**field work** ['fi:ld wə:k] *n* dala ishlari.

**fig** [fig] *n* anjir; **green ~ s** yangi anjir.

**fig leaf** [fig li:f] *n* anjir bargi.

**fig tree** ['fig,tri:] *n* anjir daraxti.

**filaceous** [fi'leɪʃəs] *a* bot. tolali o‘simliklar.

**filbert** ['filbət] *n* bot. funduk (*Kavkaz va Qrimda o‘sadigan yong ‘oq daraxti*).

**finger** ['fiŋgə] *n* digitalis (*dorivor o‘simlik turi*).

**fir** [fə:] *n* archa.

**fircone** [fə: kəun] *n* archa g‘uddasi.

**fir needle** [fə: 'ni:dl] *n* archa igna bargi.

**firry** ['fə:ri] *a* qoraqarag‘ayga oid, qoraqarag‘aydan qilingan.

**first fruits** ['fə:stfru:ts] *n pl.* birinchi hosillar.

**firstling** ['fə:stlɪŋ] *n pl.* birinchi mevalar.

**fission** ['fiʃn] *n* 1) hujayralarning bo‘linishi; 2) yorilish, bo‘linish.

**five-finger** ['faiv, fiŋgə] *n* bot. yerchoy (*o‘tsimon o‘simlik*).

**flag** [flæg] *n* bot. sapsargul.

**flax** [flæks] *n* zig‘ir, zig‘irpoya tolasidan to‘qilgan mato.

**flaxseed** ['flækssi:d] *n* zig‘ir urug‘i.

**flaxy** ['flæksi] *a* zig‘irga oid.

**fleur-de-lis** [,flə:də'li:] *n fr. bot.* gulsapsar.

**floral** ['flɔ:rəl] *a* gulga oid.

**florescence** [flo:'resns] *n* gullah, guli ochilish.

**floriculture** ['flɔ:rɪkəltʃə] *n* gulchilik.

**florid** ['flɔrɪd] *a* 1) qizil, qip-qizil (*yuz haqida*); 2) gulli, sergul, guldor.

**flourish** ['flʌrɪʃ] *v* gullamoq, yashnamoq.

**flower** ['flauə] 1. *n* gul, gullah; 2. *v* gullamoq, gul bilan bezatmoq.

**flowering** ['flauərɪŋ] *n* gullah.

**flowery** ['flauərɪ] *a* gulli, sergul, guldor.

**fog** [fɒg] 1. *n* q.x. 1) o‘tzor; 2) o‘rilmay qolgan o‘t; 3) yaylovda hayvonlarni o‘tlatish; 2. *v* chala o‘rmoq (*o‘tni*).

**foliage** ['fəulɪɪdʒ] *n* barglar, yaproqlar.

**foliate** ['fəulɪət] *a bot.* bargli, yaproqli.

**follicle** ['fɔlikl] *n* 1) *zool.* pilla; 2) *bot.* po‘choq, qo‘zoq.

**food** [fu:d] *n* oziq-ovqat, ozuqa, yemish.

**footstalk** ['futstɔ:k] *n* *bot.* poya, tana.

**forage I** ['fɔridʒ] *n* yem-xashak.

**forage II** ['fɔridʒ] *v* yem-xashak tayyorlamoq.

**forest** ['fɔrist] 1. *n* o‘rmon; 2. *v* o‘rmonlashtirmoq, daraxt ekmoq.

**forestry** ['fɔristri] *n* o‘rmonchilik, o‘rmon xo‘jaligi.

**forget-me-not** [fə'getminət] *n* *bot.* bo‘tako‘z.

**fount** [faunt] *n* chashma, buloq.

**foxglove** ['fɔksglʌv] *n* *bot.* digitalis (*dorivor o‘simlik turi*).

**frail** [freɪl] *a* nimjon, sinuvchan.

**frost-hardy** ['frɔst ha:dɪ] *a* sovuqqa chidaydigan (*o‘simlik haqida*).

**fruit** [fru:t] *n* meva; **to grow ~ s** mevali daraxt o‘stirmoq.

**fruitless** ['fru:tləs] *a* mevasiz, samarasiz, foydasiz.

**fruitful** ['fru:tfəl] *a* mevali, samarali, hosildor; ~ **tree** sermeva daraxt.

**full-blooded** [, ful'blʌdɪd] *a* to‘laqonli, doni ko‘p, serdon.

**full-blown** [, ful'bləun] *a* tamoman so‘ligan (*gul haqida*).

**fungus** ['fʌŋgəs] *n* zamburug‘, qo‘ziqorin.

**furrow** ['fʌrəu] *n* egat. jo‘yak.

**fuzz** [fʌz] *n* 1) par, pat; 2) tuk, momiq (*o'simliklarda*); 3) *q.x.* tuk, soqol (don va urug'larda).

## G g

**G, g** [dʒi:] *n* ingliz tili alifbosining yettinchi harfi.

**galipot** ['gælipɔt] *n* ignabargli daraxtlarning smolali yelimi.

**gall** [gɔ:l] *n* *bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta, xalq tabobatida dori sifatida ishlataladi*).

**gall-nut** ['gɔ:lnʌt] *n* *bot.* mozi (*yong'oqsimon o'simta*).

**gamboge** [gæm'bəudʒ] *n* bir xil tropik o'simliklarning sutsimon shirasi.

**gamekeeper** ['geim,ki:pə] *n* o'rmon nazoratchisi.

**garden** ['ga:dən] *n* bog‘; **botanical** ~ botanika bog‘i.

**garden-bed** ['ga:dnbed] *n* pushta, jo'yak, ariq.

**garden-city** [,ga:dn'siti] *n* shaharbog‘.

**gardener** ['ga:dnə] *n* bog‘bon.

**gardenframe** ['ga:dnfreim] *n* issiqxona romi.

**gardening** ['ga:dnɪŋ] *n* bog‘dorchilik.

**garden-plot** ['ga:dnplɔt] *n* bog‘dagi yer maydoni.

**garden-stuff** ['ga:dnstʌf] *n* 1) sabzavotlar; 2) mevalar, ho'l meva; 3) gullar; 4) ko'kat, rezavor.

**garden-tillage** ['ga:dn,tilidʒ] *n* bog‘dorchilik, bog‘shunoslik.

**gardentruck** ['ga:dn,trʌk] *n* amer. meva va sabzavotlar.

**garland** ['ga:lənd] 1. *n* 1) gul (*barg, novda va shu kabi*); 2) gulchambarlar bilan bezamoq.

**garlic** ['ga:lik] *n* *bot.* sarimsoqpiyoz.

**garlicky** ['ga:liki] *a* sarimsoqpiyozli.

**garner** ['ga:nə] 1. *n* omborxona, g‘alla ombori; 2. *v* omborga donni to‘kmoq.

**garth** [ga:θ] 1. *n* hovli, bog‘. 1. *v* q.x. baliq ovlash uchun to‘silgan suv.

**gather** ['gæðə] *v* 1) to‘plamoq, to‘dalamoq; 2) uzmoq (*gul*), termoq (*meva*).

**gemma** ['dʒemə] *n* *bot.* kurtak.

- gemmate** ['dʒemɪt] 1. *a* kurtak chiqazgan; 2. *v* kurtak chiqazmoq.
- gemmation** [dʒe'meʃn] *n* kurtaklanish, kurtaklar vositasida ko‘paytirish.
- generic** [dʒi'nerɪk] *a biol.* urug‘ga oid; ~ **character** umumiy xarakter.
- genista** [dʒi'nistə] *n bot.* sariq gulli, dukkakli cho‘l o‘simligi.
- gentian** ['dʒenʃn] *n bot.* gazak o‘t, gajak o‘t.
- genus** ['dʒi:nəs] *n lot. pl.* (*genera*). 1) tur, nav, xil; 2) *biol.* zot, nasl.
- geology** [dʒi'ɔlədʒi] *n* geologiya (*yer haqidagi fan*).
- geranium** [dʒe'reiniəm] *n bot.* atirshox, yorongul.
- germ** [dʒə:m] *n* 1) *biol.* embrion, pusht, homila; 2) *bot.* tuguncha urug‘don.
- germinate** ['dʒə:minet] *v* o‘smoq, o‘stirmoq (*o‘simlik urug‘lariga nisbatan qo‘llanadi*).
- germination** [,dʒə:mi'neʃn] *n* unib chiqish, ko‘karish.
- gillyflower** ['dʒili, flauə] *n* shabbo‘y (*krestgullilar oilasiga mansub xushbo‘y gulli, dekorativ o‘simlik*).
- gin** [dʒin] *v q.x.* paxtani tozalamoq.
- ginger** ['dʒindʒə] *n* zanjabil (*o‘simlik*).
- gingerbread** ['dʒindʒəbred] *n* zanjabildan qilingan shirin kulcha.
- gingery** ['dʒindʒəri] *a* zanjabilli, zanjabil qo‘shilgan.
- ginnery** ['dʒinəri] *n* paxta tozalash fabrikasi.
- gipsy moth** ['dʒipsi, məθ] *n zool.* ipak qurti.
- gladiolus** [.glædi'əuləs] *n lot. pl.* gladiolus (*tuganak piyozi ko‘p yillik o‘simlik*).
- glandiferous** [glæn'difərəs] *a* cho‘chqa yong‘oqli.
- glean** [gli:n] *v* boshoq termoq.
- glucose** ['glu:kəus] *n* glyukoza.
- go** [gəu] *v* (**went, gone**) bormoq, harakatda bo‘lmoq, yurmoq.
- gooseberry** ['guzbəri] *n bot.* krijoynik (*qarag ‘atlar oilasiga mansub tikanli buta o‘simligi va uning mevasi*).
- gorse** [gɔ:s] *n bot.* sariq gulli, dukkakli cho‘l o‘simligi.
- gourd** [guəd] *n* oshqovoq, qovoq.

**grain** [greɪn] *n* don, g‘alla.

**grain-cleaner** ['greɪn,kli:nə] *n* q.x. don tozalagich.

**grain grower** [greɪn'grəʊə] *n* g‘allakor.

**granular** ['grænjələ] *a* serdon, dona-dona, donador.

**granulate** ['grænjəleɪt] *v* maydalamoq, yanchmoq.

**grape** [greɪp] *n* uzum; ~ **sugar** uzum shirasi.

**grapefruit** ['greɪpfru:t] *n bot.* greyfrut (*sitruslar turkumiga mansub apelsinsimon mevali daraxt va uning mevasi*).

**grass** [gra:s] *n* o‘t, ko‘k o‘t, maysa, maysazor; ~ **land** ko‘katzor.

**green** [gri:n] *a* yashil; ~ **fly** shira.

**greenery** ['gri:nərɪ] *n* o‘simliklar.

**greengage** ['gri:ngeɪdʒ] *n* genklod (*olxo ‘rining bir turi*).

**greengrocer** ['gri:n,grəʊsərɪ] *n* ko‘kat do‘koni.

**greenhouse** ['gri:nhaʊs] *n* issiqxona.

**greenness** ['gri:nnəs] *n* maysa, o‘t, barglar, o‘simliklar.

**grits** [grɪts] *n* so‘li yormasi.

**group** [gru:p] 1. *n* guruh; 2. *v* guruhlarga ajratmoq, turkumlamоq.

**grove** [grəuv] *n* daraxtzor, kichkina o‘rmon.

**grow** [grəu] *v* (**grew, grown**) o‘smoq, katta bo‘lmoq, o‘stirmoq; **to ~ corn** makkajo‘xori o‘stirmoq.

**growth** [grəuθ] *n* o‘sish, o‘stirish, rivojlanish.

**gypsum** ['dʒipsəm] 1. *n* gips; 2. *v* q.x. gips bilan o‘g‘itlamоq, yerga gips solmoq, gips o‘g‘it bermoq.

## H h

**H, h** [eɪʃ] *n* ingliz tili alifbosining sakkizinchi harfi.

**habitat** ['hæbitæt] *n biol.* 1) vatan, turar joy; 2) tabiiy muhit (*o‘simlik va hayvonning*).

**hacienda** [hæsi'endə] *n* Ispaniya va Lotin Amerikasida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan maydon.

**hackle** ['hækl] *v* zig‘ir tolasini titmoq, tozalamoq.

**hackmatack** ['hækmətæk] *n* Amerika tilog‘ochi (*tilog ‘och ignabarglilarga mansub daraxt*).

**hail** [heɪl] *n* do‘l.

**hailstone** ['heɪlstəun] *n* do‘l donasi, bir dona do‘l.

**hailstorm** ['heɪlstɔ:m] *n* jala, sharros yomg‘ir, qattiq do‘l.

**half-bred** ['ha:fbred] *a* nasli toza emas, duragay, omixta.

**half-breed** ['ha:fbri:d] *n* *biol.* gibrild; 2) duragay, chatishma.

**half-hardy** [,ha:fha:dı] *a* ochiq havoda, qishga chidamaydigan (*o ‘simlik*).

**half-year** [,ha:fjıə] *n* 1) yarim yil; 2) semester.

**ham** [hæm] *n* 1) son; 2) son go‘shti.

**Hamburg** ['hæmbə:g] *n* *q.x.* qora uzumning navi.

**hammer** ['hæmə] *n* bolg‘a, to‘qmoq; ~ **and sickle** o‘roq va bolg‘a.

**hardbake** ['ha:dbeık] *n* bodom karameli.

**hard-grained** [,ha:d'greind] *a* 1) qattiq (*daraxt*); yirik donali; 2) qaysar, ojar.

**hards** [ha:dz] *n pl.* zig‘irpoyaning dag‘al tolasi.

**hardwood** ['ha:dwud] *n* qattiq yog‘och.

**harebell** ['heəbel] *n bot.* qo‘ng‘iroqgul (*yumaloq bargli*).

**hare’s-foot** ['heəzfut] *n bot.* beda, yo‘ng‘ichqa.

**haricot** ['hæríkəu] *n* 1) loviya (*o ‘simligi va doni*); 2) jarkop (*qo ‘y go ‘shtidan qilingan*).

**harvest** ['ha:vist] 1. *n* o‘rish, yig‘im-terim, hosil; 2. *v* o‘rmoq, yig‘moq, hosilni yig‘ib-terib olmoq.

**harvester** ['ha:vistə] *n* 1) o‘roqchi; 2) yig‘im-terim mashinasi.

**harvester stacker** ['ha:vistə,stækə] *n* *q.x.* g‘aramlagich.

**harvesting** ['ha:vistin] *n* hosilni yig‘ib-terib olish.

**harvest mouse** ['ha:vist,maus] *n* dala sichqoni.

**hasheesh** ['hæʃiʃ] *n arab.* nasha.

**hassock** ['hæsək] *n* o‘t bilan qoplangan do‘nglik.

- hastate** ['hæsteɪt] *a bot.* o‘qsimon, nayzasimon, bargsimon.
- hastings** ['heɪstɪŋz] *n pl.* ertangi, tezpishar sabzavot va mevalar.
- haulm** [hɔ:m] *n* poya, palak barg (*sabzavotga oid*), poxol.
- have** [hæv] *v (had; had)* ega bo‘lmoq; **to ~ a dinner** tushlik qilmoq; **to ~ a pleasant time** yaxshi vaqtini o‘tkazmoq; **to ~ a headache** boshi og‘rimoq.
- haw** [hɔ:] *n* do‘lana (*daraxti va mevasi*).
- hawthorn** ['hɔ:θɔ:n] *n* do‘lana daraxti.
- hay** [hei] *n* pichan, xashak; **to make ~** pichan o‘rmoq, quritmoq.
- haycock** ['heɪkɔ:k] *n* pichan g‘arami.
- hayloft** ['heɪlɒft] *n* bedaxona, pichanxona.
- haymaker** ['hei,meɪkə] *n* 1) pichan o‘ruvchi, o‘roqchi; 2) *q.x.* pichan o‘radigan mashina.
- haymaking** ['hei,meɪkiŋ] *n* pichan o‘rish.
- hayrick** ['heɪrik] *n* pichan g‘arami, bir g‘aram pichan.
- haystack** ['heɪstæk] *n* pichan g‘arami, bir g‘aram pichan.
- haze** [heɪz] 1. *n* tuman, bug‘, xiralik; 2. *v* tuman bosmoq.
- hazel** ['heɪzl] *n* yong‘oq daraxti, yong‘oqzor.
- hazelnut** ['heɪzlnʌt] *n* yong‘oq.
- head** [hed] 1. *n* 1) bosh, kalla; **from ~ to foot** boshidan oyog‘igacha; 2) mixning qalpog‘i; 3) tanganing oldingi boshi; 2. *v* atamoq, sarlavha qo‘ymoq.
- heap** [hi:p] 1. *n* to‘da, uyum, g‘aram, to‘p; 2. *v* uymoq, to‘plamoq, yuklamoq.
- heather** ['heðə] *n bot.* archagul, supurgigul.
- heaven** ['hevн] *n* ko‘k, osmon, samo, falak, jannat; **-ly** samoviy.
- hemp** [hemp] *n* kanop.
- henna** ['henə] 1. *n bot.* xina; 2. *a* xina bargli.
- herb** [hə:b] *n* ot, ko‘k, maysa (*shifobaxsh o‘tlar*).
- herbaceous** [hə:'beɪʃəs] *a* o‘t alafga oid, o‘tsimon.
- herbal** ['hə:bl] *a* o‘tli, giyohli.
- herbarium** [hə:'beəriəm] *n lot. pl.* gerbariy (*quritilgan o‘simliklar kolleksiysi*).

**herbivorous** [hə:'bɪvərəs] *a* o‘txor, alafxo‘r.

**herd** [hə:d] 1. *n* 1) poda, gala; 2) podachi, cho‘pon; 2. *v* poda boqmoq, o‘latmoq; ~ **sman** podachi.

**hoe** [həʊ] *n* ketmon; ~ **ing** yumshatish, chopiq.

**holiday** ['hələdeɪ] *n* 1) bayram; 2) ta’til.

**hollow** ['hələʊ] *n* boshlik, kovak; ~ **in the round** yerdagi kovak; ~ **tree** kovak yer.

**holly** ['hɔli] *n bot.* padub (*nayzabargli daraxtning bir turi*).

**hollyhock** ['hɔlihɔk] *n bot.* gulxayri.

**homestead** ['həumsted] *n* qo‘rg‘on, chorborg‘, ferma.

**honey** ['hʌni] *n* asal, bol.

**honeybee** ['hʌnibɪ:] *n* ishchi asalari.

**honeycomb** ['hʌnikəʊm] *n* asalari ini.

**honeysuckle** ['hʌni,sʌkl] *n bot.* shil va uchqat (*buta o‘simlik*).

**horn** [hɔ:n] *n* shox; ~ **ed** shoxli; ~ **ed cattle** shoxli mol.

**hornbeam** ['hɔ:nbi:m] *n bot.* grab (*qayinlar oilasiga mansub daraxt yoki buta*).

**horse chestnut** [,hɔ:s'fesnət] *n* 1) kashtan (*o‘simlik*); 2) kashtan yong‘og‘i.

**horseradish** ['hɔ:s,rædɪʃ] *n* yerqalampir, achchiq o‘simlik.

**horticulture** ['hɔ:tikəltʃə] *n* 1) bog‘dorchilik; 2) polizchilik.

**huckleberry** ['hʌklbəri] *n* chernika (*buta va mevasi*).

**hull** [hʌl] 1. *n* po‘choq, po‘st; 2. *v* po‘chog‘ini archmoq.

**human** ['hju:mən] *a* insoniy; **the ~ race** inson zoti.

**humid** ['hju:mid] *a* zax, hol, nam.

**humidify** [hju:'mɪdɪfaɪ] *v* ho‘llamoq, namlamоq.

**humidity** [hju:'mɪdətɪ] *n* namlik, zaxlik.

**humify** ['hju:mɪfaɪ] *v* 1) namlamоq, ho‘llamoq; 2) *q.x.* o‘g‘itlamоq, o‘g‘itlab unumdor qilmoq (yerni).

**humus** ['hju:məs] *n* 1) chirindi; 2) qoratuproq.

**hunk** [hʌŋk] *n* bir tilim yaproq, bir parcha, bir burda.

**husbandman** ['hʌzbəndmən] *n* dehqon, ziroatchi.

**husbandry** ['hʌzbəndri] *n* qishloq xo‘jaligi; ~ **animal** chorvachilik.

**husk** [hʌsk] 1. *n* qobiq, po‘choq, po‘st; 2. *v* archimoq, po‘chog‘ini olmoq.

**hybrid** ['haibrɪd] *n* gibrid, chatishma, duragay.

**hydrangea** [haɪ'dreɪndʒə] *n bot.* yirik gulli dekorativ o‘simlik.

## I i

**I, i** [ai] *n* ingliz tili alifbosining to‘qqizinchi harfi.

**I** [ai] men; ~ **say** menga qarang; ~ **am a student** men talabaman.

**ilex** ['aileks] *n bot.* padub (*nayza bargli daraxtning bir turi*).

**ilk** [ilk] *n* nav, tur, xil.

**illumine** [ɪ'lju:min] *v* nur sochmoq, yoritmoq.

**immature** [,ɪmə'tjuə] *a* yetilib pishmagan, xom; ~ **fruit** pishmagan meva.

**immortelle** [,ɪmɔ:'tel] *n fr. bot.* o‘lmas o‘t (*quriganda ham gulı o‘zgarmaydigan o‘t*).

**implantation** [,ɪmpla:n'teɪʃən] *n* o‘tqazish, ekish.

**impoundment** [ɪm'paundmənt] *n* hovuz, suv havzasi.

**impoverished** [ɪm'pəvərɪʃt] *a* ozib ketgan, oriq; ~ **soil** oriq yer.

**impregnation** [,ɪmpreg'neɪʃn] *v* 1) otalantirmoq; 2) mahsuldor, unumli qilmoq.

**improve** [ɪm'pru:v] *v* yaxshilamoq, yaxshilanmoq; **to ~ to looks** yaxshiroq ko‘rinmoq.

**improved** [ɪm'pru:vd] *a* mukammallashtirilgan, yaxshilangan.

**improvement** [ɪm'pru:vmənt] *n* yaxshilash, mustahkamlash.

**in** [ɪn] 1. *prep.* 1) o‘rinni bildiradi; ~ **town** shaharda; 2) paytni bildiradi; ~ **summer** yozda; ~ **time** o‘z vaqtida; 2. *adv.* ichida, ichkarida; **father is ~ ota uy ichida; to come in ~ kirmoq.**

**inadhesive** [,ɪnəd'hi:sɪv] *a* yopishmaydigan, shirasi yo‘q.

**incarnadine** [ɪn'ka:nədæɪn] *a* alvon, qirmizi, och qizil.

**incense** ['ɪnsens] 1. *n* isiriqsimon xushboy tutatqi; ~ **plant** isiriq; 2. *v* isiriq tutatmoq.

**inchoate** ['ɪnkəueɪt] *a* kurtak holidagi, chalkashgan, adashgan.

**inclement** [ɪn'klemənt] *a*sovuq, og‘ir (*ob-havo to ‘g ‘risida*).

- incrustation** [ɪnkrəs'teɪʃn] *n* po'stloq, po'st, qobiq, ustki qatlam.
- Indian** ['indɪən] *n* hind; ~ **corn** makkajo'xori (*o'simligi va doni*).
- Indian cane** [,indɪən'keɪn] *n bot.* bambuk (*qamishga o'xshash tropik meva*).
- inedible** [ɪ'nedɪbl] *a* yeyilmaydigan, yeb bo'lmaydigan.
- inefficient** [,ɪnɪ'fɪʃnt] *a* beunum, unumi yo'q.
- infertile** [ɪn'fə:taɪl] *a* 1) hosilsiz, unumsiz (*yerga nisbatan*); 2) tug'maydigan.
- infertility** [,ɪnfə'tɪlətɪ] *n* 1) hosilsiz, unumsiz; 2) naslsiz.
- inflexibility** [ɪn,fleksə'bɪlətɪ] *n* egilmaslik, qayrilmaslik.
- inflorescence** [,ɪnflɔ:'resəns] *n bot.* gullah.
- ingathering** [ɪn'gæðərɪŋ] *n* hosilni yeg'ishtirib olish.
- ingrained** [ɪn'greɪnd] *a* singib ketgan, ildiz otgan.
- inoculate** [ɪ'nəkjuleɪt] *v* 1) *bot.* payvand qilmoq, ulamoq; 2) emlamoq.
- insect** ['ɪnsekt] *n* hashorat.
- insecticide** [ɪn'sektɪsaɪd] *n* zararli hashoratlarga qarshi moddalar, dorilar.
- interbreed** [,ɪntə'bri:d] *v biol. q.x.* chatishtirmoq.
- inundate** ['ɪnʌndeɪt] *v* toshmoq, toshib suv bosib ketmoq.
- inundation** [,ɪnʌn'deɪʃn] *n* toshqin, sel bosish.
- iris** ['aɪərɪs] *n* 1) *bot* gulsapsar; 2) kamalak, yashil kamalak.
- irreclaimable** [,ɪrɪ'kleɪməbl] *a* ishlov berishga yaroqsiz (*yer to 'g'risida*).
- irrigate** ['ɪrɪgeɪt] *v* sug'ormoq, suv qo'ymoq.
- irrigation** [,ɪrɪ'geɪʃn] *n* sug'orish, suv qo'yish.
- it** [ɪt] *pron demon. u* (*jonsiz predmetlar, hayvonlar uchun*); ~**s** uniki, uning.
- ivy** ['aɪvɪ] *n bot.* pechak (*chirmovuqqa o'xshab o'sadigan o'simlik*).

## J j

- J, j** [dʒeɪ] *n* ingliz tili alifbosining o'ninchi harfi.
- jardiniere** [,ʒɑ:dɪnɪ'eə] *n fr.* xonaki gul uchun maxsus quti yoki savat.
- jargonelle** [,dʒɑ:gə'nel] *n* ertapishar nok.

**jasmin** ['dʒæzmin] *n* yasmin (*o 'tkir xushbo'y oq gulli ko 'pincha bog'larda o 'stiriladigan butasimon o 'simlik*).

**jimson weed** ['dʒimsən wi:d] *n bot* bangidevona.

**job** [dʒəub] 1. *n* ish, mehnat; 2. *v* ishlamoq, mehnat qilmoq.

**johnny-jump-up** [,dʒəni'ðʌmpʌp] *n* Amerika o'rmon binafshasi.

**jonquil** ['dʒəŋkwil] *n* 1) nargis gul; 2) sargish rang, malla rang.

**jug** [dʒʌg] *n* ko'za, kuvacha; **milk** ~ sut uchun ko'za.

**jugate** ['dʒu:gɪt] *a bot.* juft, qo'sh, qo'shaloq, qirrali (*barglar va b*).

**juice** [dʒu:s] *n* sharbat, shira; **orange** ~ apelsin sharbati.

**juicy** ['dʒu:si] *a* sersuv, shirali.

**jungle** ['dʒʌŋgl] *n* 1) chakalakzor, changalzor; 2) qalin o'rmon.

**juniper** ['dʒu:nipə] *n* archa, qora archa.

**jute** [dʒu:t] *n bot.* jut (*tola beradigan o 'simlik*).

## Kk

**K, k** [kei] *n* ingliz tili alifbosining o'n birinchi harfi.

**kaleyard** ['keiʃa:d] *n* shotl. poliz, poliz ekinlari (*sabzavot ekilgan yer*).

**katydid** ['keitidid] *n* yashil chigirtka.

**kelp** [kelp] *n* laminariya (*jod olinadigan suv o 'simligi*).

**keratin** ['kerətin] *n biol.* keratin (*shox, pat, va sochda bo'ladigan oltingugurt moddasiga boy oqsil modda*).

**kerf** [kə:f] *n* kertma belgi (*daraxtda*).

**kernel** ['kə:nəl] *n* don,urug‘, mag‘iz.

**kidney bean** ['kɪdnɪ,bi:n] *n* loviya (*o 'simligi va doni*).

**kirn** [kə:n] *n* hosil bayrami.

**kiss-me-quick** [,kismi'kwik] *n* kapalakgul, farang binafsha.

**kitchen garden** [,kɪʃɪn'ga:dn] *n* poliz, poliz ekinlari ekiladigan yer.

**kitchen herbs** [,kɪʃɪn'hə:bz] *n* xushbo'ylik, o'tkir hidlilik (*ko 'katlarda*).

**knag** [næg] *n* butoq, shox (*daraxtlarda*).

**knaggy** ['nægɪ] *a* shoxlari ko‘p, serbutoq.

**knapweed** ['næpwi:d] *n bot.* (*qora*) bo‘tako‘z.

**knar** [na:] *n* shish, g‘urra, g‘udda (*daraxtlarda*) butoq.

**knarred** [na:d] *a* sershox, serbutoq.

**knobby** ['nɔbi] *a* g‘adir-g‘adir, serbutoq, tugun-tugun.

**knurl** [nɜ:l] *n* g‘udda, g‘urra, g‘adir budurlik.

**knur** [nɜ:] *n* butoq, (*shoxlarda*).

**kohlrabi** [kəul'ra:bɪ] *n bot.* sholg‘omkaram, toshkaram (*mazasi sholg‘omga o‘xshagan karam*).

**kraut** [kraut] *n* tuzlangan karam.

## Лл

**L, l** [el] *n* ingliz tili alifbosining o‘n ikkinchi harfi.

**lackland** ['læklaend] *a* yersiz, yeri yo‘q.

**lacteal** ['læktriəl] *a* sutli, sersut, sut beradigan, sog‘iladigan.

**lactiferous** [læk'tifərəs] *a* sut ajratuvchi o‘simlik.

**lactose** ['læktəs] *n* lakteza (*sut shakari*).

**lady`s bedstraw** [,leɪdɪz'bedstro:] *n bot.* chaqamiq.

**lady`s purse** ['leɪdɪz,pə:s] *n bot.* ochambiti (*krestguldoshlarga mansub, mayda, oq gulli va xaltacha shaklidagi o‘t*).

**laird** [leəd] *n shotl.* zamindor, katta yer egasi.

**lambaste** [læm'bēst] *v* urmoq, maydalamoq, yanchmoq.

**Lammas** ['læməs] *n tar.* hosil bayrami (*1- avgust*).

**lanceolate** ['la:nsləleɪt] *a bot.* nishtarga o‘xshagan, nayzasimon.

**land** [lænd] *n* 1) yer, quruqlik, tuproq; 2) mamlakat, davlat.

**land** [lænd] *v* quruqlikka chiqmoq, yerga qo‘nmoq.

**land-agent** [lænd'eidʒənt] *n* 1) yer maydonlarini sotish bo‘yicha agent; 2) yer xo‘jaligining boshqaruvchisi.

**landed** ['lændid] *a* yerli.

- landfill** ['lændfil] *n* chiqindilarni yerga ko‘mish.
- landgrave** ['lændgreiv] *n nem.* landgraf (*yer egasi*).
- landholder** ['lænd,həuldə] *n* yer maydonining egasi yoki ijarachi.
- land-hunger** ['lænd,hʌŋgə] *n* yerni sotib olishga intilish.
- land-hungry** ['lænd,hʌŋgrɪ] *a* yersiz, yeri yo‘q.
- landless** ['lændləs] *a* yersiz, yeri yo‘q.
- landowner** ['lænd,əunə] *n* yer egasi.
- landowning** ['lænd,əunɪŋ] *n* yerga egalik qilish, zamindorlik.
- landscape-architecture** ['lænskeip'a:kitektʃə] *n* manzarali bog‘dorchilik.
- landscape-gardener** ['lænskeip'ga:dнə] *n* bog‘bon –dekorator.
- land tenure** ['lænd,tenjə] *n* yerga egalik qilish.
- larch** [la:tʃ] *n bot.* tilog‘och (*ignabarglilarga mansub daraxt*).
- larrup** ['lærəp] *v so‘zl.* urmoq, yanchmoq, maydalamoq.
- lasher** ['læʃə] *n* 1) to‘sish, bo‘g‘ish; 2) to‘silgan suv.
- lateral** ['lætərəl] 1. *a* yon tomondagi; 2. *n* 1) yon tomon; 3) shox, novda.
- latex** ['leɪteks] *n bot.* sutsimon shira (*kauchukli o ‘simliklarda*).
- laurel** ['lɔ:rəl] 1. *n* asl dafna (*daraxti*); 2. *v* g‘alaba toji bilan taqdirlamoq.
- laurel oak** ['lɔ:rəl,əuk] *n* dafna daraxtining to‘nkasi.
- lavender** ['lævəndə] *n bot.* lavanda (*havorang yoki binafsha rang gulli, xushbo‘y, doim yashil o ‘simlik*).
- lavender-water** ['lævəndə] *n* lavanda suvi.
- lawn** [lɔ:n] *n* kichik o‘tzor, maysazor.
- lawn-mover** [lɔ:n 'mu:və] *n* o‘t o‘radigan o‘roq mashina.
- lawn-sprinkler** [lɔ:n,sprɪŋklə] *n* maysalarga suv quyiladigan mashina.
- lawny** ['lɔ:nɪ] *a* yashil o‘tlar bilan qoplangan.
- layer** ['leɪə] *n* 1) *bot.* o‘simliklarning bir novdasini ko‘mib yangi tup hosil qilish va shu yo‘l bilan hosil qilingan ko‘chat. 2) qatlam.
- lea** [li:] *n* maysazor, o‘tloq.

**leaf** [li:f] 1. *n* (pl leaves) 1) barg, yaproq; **the fall of the** ~ bargning to‘kilishi; ~ **bridge** ko‘tariladigan ko‘prik; **to turn over a new** ~ yangi hayotni boshlamoq; 2. *v* barglari to‘kilmox.

**leafage** ['li:fɪdʒ] *n* barglar, yaproqlar.

**leaflet** ['li:flet] *n* 1) *bot.* yaproqcha; 2) varaqsa.

**leafstalk** ['li:fstɔ:k] *n* *bot.* barg qalamchasi, yaproq bandi.

**leafy** ['li:fi] *a* barglar bilan qoplangan, bargli; ~ **forest** bargli o‘rmon.

**lean** [li:n] 1. *a* oriq, ozg‘in, kamchil, siyrak; ~ **years** hosilsiz yer, kamhosil yer; 2. yog‘siz go‘sht.

**learn** [lə:n] *v* (**learnt, learned**) o‘qimoq, saboq olmoq, o‘rganmoq; **to ~ English** ingliz tilini o‘rganmoq.

**leathercoat** ['leðəkəut] *n* po‘sti qattiq olma.

**leaved** [li:vd] *a* barg bilan qoplanmoq; **large ~ tree** katta bargli daraxt.

**leavings** ['li:vɪŋz] *n pl.* qoldiq, chiqit, chiqindi.

**ledger-bait** ['ledʒə,bait] *n* yem, xo‘rak (*qarmoqqa, qopqonga qo‘yilgan yemish*).

**leek** [li:k] *n* ko‘k piyoz; **wild ~** yovvoyi sarimsoqpiyoz.

**lees** [li:z] *n* qo‘yqa, qoldiq, chiqindi.

**leg** [leg] 1. *n* 1) oyoq; 2) boldir; 3) yasama oyoq; **wooden ~** yog‘och oyoq; 2. *v* 1) yurmoq; 2) oyoqqa zarba bermoq.

**legume** ['legju:m] *n* *bot.* loviya (*dukkagi va doni*).

**leguminous** [li'gju:minəs] *a* *bot.* loviyaga oid, loviyali.

**lemon** ['lemən] *n* limon.

**lentil** ['lentil] *n* *bot.* yasmiq (*o‘simlik*).

**lesson** ['lesn] *n* dars; **to give ~ s in Uzbek** o‘zbek tilida dars bermoq.

**lettuce** ['letis] *n* *bot.* salat, kohu (*ko‘kat o‘tlardan bir turi*).

**licorice** ['likəris] *n* *bot.* qizilmiya, shirinmiya (*dukkakli o‘simlik*).

**lilac** ['laɪlək] *n* *bot.* siren (*xushbo‘y, och binafsha rang gul*).

**lily** ['lili] *n* marvaridgul, nilufar.

**limb** [lim] *n* shox-shabba.

**linseed** ['linsi:d] *n* zig‘ir urug‘i; ~ **oil** zig‘ir yog‘i.

**liquorice** ['lɪkərɪs] *n bot.* qizilmiya, shirinmiya (*dukkakli o 'simlik*).

**loam** [ləum] *n* unumdor (*serhosil*) yer.

**locust** ['ləukəst] *n bot.* oq akas (*oq gulli dukkakli daraxt*).

**loft** [lɔft] *n* 1) bedaxona, pichanxona; 2) kaptarxona.

**log** [lɔg] *n* g'ula, yog'och, xoda.

**lop** [lɔp] 1. *n* mayda novdalar, butoqlar; 2. *v* butoqlamoq.

**lotus** ['ləutəs] *n bot.* nilufar.

## M m

**M, m** [em] *n* ingliz tili alifbosining o'n uchinchi harfi.

**macaw I** [mə'kɔ:] *n* to'tiqush.

**macaw II** [mə'kɔ:] *n* Janubiy Amerika palmasi.

**mace** [meis] *n* muskat rang (*muskat yong 'og 'ining quritilgan po 'chog 'i*).

**macrobiosis** [mækrəubəsɪs] *n* ko'p yillik.

**madder** ['mædə] *n bot.* royan (*ildizidan qizil bo 'yoq olinadigan o 'simlik*).

**madia** ['meɪdiə] *n bot.* madiya; ~ **oil** madiya moyi.

**madonna lily** [mə'dənə,lili] *n* oq liliya (*lolagullilarga mansub dekorativ o 'simlik*).

**madrono** [mə'drəunjə] *n bot.* yer tuti daraxti.

**maggot** ['mægət] *n* qurt (*kapalak, chivin, chuvalchang va shu kabilarning tuxumdan chiqqan qurti*).

**maggoty** ['mægətɪ] *a* qurtlagan, qurt tushgan, qurtlab ketgan.

**magnolia** [mæg'nəuliə] *n* magnoliya (*yirik, xushbo'y gulli doim yashil bo 'lib turadigan daraxt yoki buta*).

**mahogany** [mə'hɔgəni] *n bot.* qizil daraxt.

**mallow** ['mæləu] *n bot.* 1) gulxayri; 2) tugmachagul.

**malt** [mɔ:lt] 1. *n* solod (*undirib yanchilgan bug 'doy, arpa va sh. k.*); 2. *v* undirmoq (*arpa, bug 'doy va b.*).

**malvaceae** [mæl'veisii:] *n pl bot.* gulxayrilar.

**mandarin** ['mændərin] *n* 1) mandarin; 2) xitoy salati.

**mandrake** ['mændreɪk] *n* bot. mehrigiyoh.

**mangel-wurzel** ['mæŋgl'wə:zl]) *n* nem. xashaki molga beriladigan lavlagi.

**manger** ['meɪndʒə] *n* oxur, tegana.

**mango** ['mæŋgəʊ] *n* mango, anbah (*issiq mamlakatlarda o'sadigan daraxt va uning mevasi*).

**mangrove** ['mæŋgrəʊv] *n* mangrov daraxti.

**manila** [mə'nɪlə] *n* manila kanop tolasi.

**manna** ['mænə] *n* bot. bug'doy.

**manna-croup** ['mænə,kru:p] *n* bug'doy yormasi.

**manuka** ['ma:nukə] *n* choy daraxti.

**manure** [mə'njuə] 1. *n* go'ng, o'g'it; 2. *v* go'ng solmoq.

**maple** ['meipl] *n* zarang daraxti.

**maple-leaf** ['meiplli:f] *n* zarang daraxtining bargi.

**marbled** ['ma:bld] *a* ola-chipor, xol-xol dog'li.

**marc** [ma:k] *n* siqish (*mevalarni*).

**marguerite** [ma:gə'ri:t] *n* bot. dastorgul.

**marigold** ['mærɪgəuld] *n* bot. gulhamishabahor.

**marihuana** [mæri'wa:nə] *n* isp. marixuana, nasha.

**marjoram** ['ma:dʒərəm] *n* bot. mayoran.

**market garden** ['ma:kɪt'ga:dn] *n* poliz, poliz ekinlari ekilgan yer.

**marrow squash** [mærəu'skwɔʃ] *n* bot. qovoqcha (*qovoqning mayda uzunchoq bir turi*).

**marshmallow** [ma:ʃmæləʊ] *n* bot. dorivor gulxayri.

**mast** [ma:st] *n* q.x. yig'ishtirilgan xashak, pichan hosili.

**mature** [mə'ʃuə] *a* 1) pishgan, yetilgan; 2) o'sgan, katta bo'lgan.

**maturity** [mə'ʃuərətɪ] *n* yetilganlik, pishganlik.

**mauve** [məuv] *a* qizgish binafsharang.

**meadow** ['medəʊ] *n* o'tloq, yaylov.

**meal I** [mi:l] *n* ovqat, ozuqa.

**meal II** [mi:l] *v* ovqatlanmoq, ovqat yemoq.

**meat** [mi:t] *n* go‘sht; ~ly go‘shtli.

**mellow** ['meləu] *a* 1) yetilgan, pishgan (*mevalar haqida*); 2) shirali, yoqimli.

**melon** ['melən] *n* qovun; **water~** tarvuz.

**milk I** [milk] *n* sut.

**milk II** [milk] *v* sut sog‘moq; ~ **maid** sutchi.

**milker** ['milkə] *n* 1) sut sog‘adigan mashina; 2) sut sog‘uvchi.

**milky** ['milkı] *a* sutli.

**millet** ['milit] *n* tariq.

**mint** [mint] *n bot.* yalpiz.

**mistletoe** ['misltəu] *n bot.* omela (*daraxtlarda yopishib yashaydigan doim yashil buta*).

**moist** [mɔist] *a* zax, ho‘l, nam; ~y zaxlik, namlik.

**mold** [məuld] *n* po‘panak, mog‘or; **grow ~** mog‘orlamoq, mog‘or bosmoq.

**moss** [mɔs] *n bot.* mox, yo‘sin.

**mother** ['mʌðə] *n* ona.

**mould I** [məuld] *n* mog‘or, po‘panak.

**mould II** [məuld] *v* mog‘or bosmoq, po‘panak bosmoq, mog‘orlamoq.

**mould III** [məuld] *n* chopilgan yer.

**mow** [mau] *n* 1) g‘aram, to‘p; 2) bedaxona, pichanxona.

**mucilage** ['mju:silidʒ] *n* 1) o‘simlik yelimi; 2) shilimshiq parda.

**muck** [mʌk] *n* go‘ng, tezak.

**mulberry** ['mʌlbəri] *n* 1) tut daraxti; 2) tut mevasi.

**mushroom** ['mʌʃrəm] *n* qo‘ziqorin.

**mustard** ['mʌstəd] *n* 1) xantal (*o‘simlik*); 2) xantal o‘simligi va urug‘idan tayyorlangan ziravor.

**musty** ['mʌsti] *a* 1) mog‘orlagan, po‘panak bosgan; 2) eskirgan, eskirib qolgan.

**myrrh** [mə:] *n* mirra (*xushbo‘y smola turi va shundan smola beradigan daraxt*).

**myrtle** ['mə:tl] *n bot.* mirt, mirta (*doim yashil, xusbo‘y buta, o‘simlik*).

## **N n**

**N, n** [en] *n* ingliz tili alifbosining o‘n to‘rtinchi harfi.

**narcissus** [na:'sisəs] *n bot.* nargiz guli.

**nasturtium** [nə'stɜ:ʃəm] *n bot.* lotin chechagi.

**natural-ground** ['næʃfrəl,graund] *n* chidamli yer (*tuproq*).

**near desert** ['niə,dezət] *n* yarimcho‘l, yarimdasht.

**nectar** ['nektə] *n* 1) *mif.* obihayot; 2) gul shirasi, suvi.

**nectariferous** [,nekta'rifərəs] *a bot.* asalga boy, asal beradigan, serasal.

**nectarine** ['nektəri:n] *n* silliq shaftoli.

**nectary** ['nektəri] *n bot.* shiradon (*o ‘simlik gulining nektar chiqaradigan bezi*).

**nenuphar** ['nenjufa:] *n bot.* oq nilfiya.

**nervate** ['nə:veɪt] *a bot.* tomirli (*o ‘simlik barglarida*).

**nervation** [nə:'veɪʃn] *n bot.* tomirlash.

**nerveless** ['nə:vle:s] *a bot.* tomirsiz.

**nettle** ['netl] *n* qichitqi o‘t, gazanda o‘t.

**new-blown** ['nju:bləun] *a* yangi gullagan.

**next** [nekst] *a* keyingi, navbatdagi; ~ **day** ertasi kuni.

**nightshade** ['naɪtʃeɪd] *n bot.* ituzum; **black** ~ qora ituzum.

**nit** [nit] *n shotl.* yong‘oq, yong‘oq mag‘zi, yong‘oq daraxti, yong‘oq ko‘chati.

**nival** ['naɪvəl] *a* qorning tagida o‘sadigan.

**noxious** ['nɔkʃəs] *adv* zararli, zarar qiladigan; ~ **plants** zaharli o‘simliklar.

**nut I** [nʌt] *n* yong‘oq.

**nut II** [nʌt] *v* yong‘oq termoq.

**nutmeg** ['nʌtmeg] *n bot.* muskat yong‘og‘i.

**nutshell** ['nʌtʃel] *n* yong‘oq po‘chog‘i.

**nut-tree** ['nʌt'tri:] *n* yong‘oq daraxti.

**nutty** ['nʌti] *a* yong‘oq ta’mli.

**nutwood** ['nʌtwud] *n* 1) yong‘oq daraxti; 2) o‘rmon yong‘og‘i.

## O o

**O, o** [əʊ] *n* ingliz tili alifbosining o‘n beshinchи harfi.

**oak** [əuk] *n* dub, eman.

**oak apple** ['əuk, æpl] *n* mozi (*eman daraxtining bargida ba’zi parazitlar ta’sirida hosil bo‘ladigan yong ‘oqsimon o‘simta*).

**oaken** ['əukən] *a* dubga oid, dubdan ishlangan.

**oakery** ['əukəri] *n* dubzor o‘rmon, emanzor.

**oak fig** ['əuk, fig] *n* mozi (*eman daraxtining bargida ba’zi parazitlar ta’sirida hosil bo‘ladigan yong ‘oqsimon o‘simta*).

**oak gall** ['əuk, gɔ:l] *n* mozi (*eman daraxtining bargida ba’zi parazitlar ta’sirida hosil bo‘ladigan yong ‘oqsimon o‘simta*).

**oaklet** ['əuklɪt] *n* yosh dub.

**oakling** ['əuklɪŋ] *n* yosh dub.

**oak nut** ['əuk, nʌt] *n* mozi (*eman daraxtining bargida ba’zi parazitlar ta’sirida hosil bo‘ladigan yong ‘oqsimon o‘simta*).

**oak tree** ['əuk, tri:] *n* dub, bolut, eman daraxti.

**oakum** ['əukəm] *n* zig‘irpoyaning dag‘al tolasi.

**oak wood** ['əuk, wud] *n* dubzor o‘rmon, emanzor.

**oaky** ['əuki] *a* dubga oid, dubdan ishlangan.

**oasis** [əu'eisis] *n* voha, vodiy.

**oat** [əut] 1. *n* suli; 2. *attr* suliga oid, suli yormasidan tayyorlangan.

**oatcake** ['əutkeɪk] *n* suli unidan tayyorlangan non.

**oat-flakes** ['əut,fleɪks] *n pl.* suli yormasi.

**odourless** ['əudələs] *a* hidsiz, hidи yo‘q.

**officinal** [ˌɔfɪ'sainl] *a* dorivor (*o ‘simlik to ‘g ‘risida*).

**offset** ['ɔfset] *n* novda, shox.

**offshoot** ['ɔfʃu:t] *n* yonidan o‘sib chiqqan shox, novda, butoq.

**oilcake** ['ɔilkeɪk] *n* kunjara.

**oilmeal** ['ɔil, mi:l] *n* kunjara.

**oil-plant** ['ɔilpla:nt] *n* yog‘ beradigan o‘simlik.

**oil-press** ['ɔɪlpres] *n* yog‘ ishlab chiqaradigan uskuna.

**oily** ['ɔɪlɪ] *a* yog‘li, seryog‘.

**Okie** ['əukɪ] *n amer.* olamni kezuvchi qishloq xo‘jalik ishchisi (*Oklahoma shtatida*).

**old man’s beard** [,əuldmænz`biəd] *n bot.* tok bargiga o‘xshagan ilono‘t, ilonpechak.

**oleander** [,əuli'ændə] *n bot.* sambitgul (*doim yashil dekorativ o ‘simlik*).

**oleaster** [,ɔli'æstə] *n bot.* yovvoyi zaytun (*daraxti va mevasi*).

**olericulture** [əu'lerɪ,kʌltʃə] *n* sabzavotchilik, polizchilik, poliz ekinlarini etishtirish.

**olivaceous** [,ɔli'veiʃəs] *a* zaytunga oid, zaytun rangidagi.

**olive** ['ɔliv] *n* zaytun (*daraxti va mevasi*).

**olive-branch** ['ɔliv,bra:nf] *n* zaytun novdasi.

**olive oil** [,ɔliv'ɔɪl] *n* zaytun moyi.

**olive tree** ['ɔlivtri:] *n* zaytun daraxti.

**olive-wood** ['ɔlivwud] *n* zaytunzor.

**onion** ['ʌnjən] *n* piyozi.

**onion-skin** ['ʌnjənskin] *n* piyozi po‘chog‘i.

**oniony** ['ʌnjənɪ] *a* piyozi, piyozi solingan.

**oolong** ['u:lɔŋ] *n* xitoy qora choyining bir turi.

**opulence** ['ɔpjuləns] *n* mo‘llik, serobchilik.

**orache** ['ɔritʃ] *n bot.* olabuta, sho‘ra.

**orange** ['ɔrindʒ] *n* 1) apelsin; 2) apelsin daraxti; **blood** ~ go‘shti qizil shirin apelsin.

**orange** ['ɔrindʒ] *a* to‘q sariq rang, apelsin rang.

**orange lily** ['ɔrindʒ,lili] *n bot.* qizil liliya (*lolagullilarga mansub dekorativ o ‘simlik*).

**orange melon** ['ɔrindʒ,melən] *n bot.* shakar qovun.

**orange-peel** ['ɔrindʒ,pi:l] *n* 1) apelsin po‘chog‘i; 2) shakarlangan apelsin po‘chog‘i.

**orangery** ['ɔrimdʒəri] *n* 1) apelsin bog‘i; 2) apelsinlarni qishlatish, sovuqdan saqlash, qishda ham o‘stirish uchun qilingan issiq bino.

**orchard** ['ɔ:ʃəd] *n* mevali bog‘, mevazor.

**orcharding** ['ɔ:ʃədɪŋ] *n* meva etishtirish, mevachilik.

**orchardman** ['ɔ:ʃədmən] *n* mevachi, mevachilik mutaxassis.

**orchid** ['ɔ:kɪd] *n bot.* orxideya.

**orchidaceous** [ ,ɔ:kɪ'deɪʃəs] *a* orxediyaga oid, orxediya.

**orchis** ['ɔ:kɪs] *n bot.* solib, orxis (*ildizidan dori tayyorlanadigan ko'p yillik o't-o'simlik*).

**organic** [ɔ:gænɪk] *a* organik, tarkibiy.

**organizm** ['ɔ:gənɪzm] *n* organizm, vujud.

**osier** ['əuziə] *n* 1) tol; 2) tol novdasi.

**ovary** ['əuvərɪ] *n* 1) *anat.* tuxumdon; 2) *bot.* tuguncha, urug‘don.

**overblown** [ ,əuvə'bləun] *a* 1) benihoya bo‘rttirilgan; 2) *v* ochilmoq (*gullar haqida*).

**ovum** ['əuvəm] *n biol.* tuxum, hujayra.

**oxherd** ['ɔkshə:d] *n* cho‘pon, podachi.

**oxygen** ['ɔksidʒən] *n kim.* 1. kislorod; 2. *attr* kislorodli.

**oxygeneous** [ɔ:k'sidʒənəs] *a* kislorodli.

## P p

**P, p** [pi:] *n* ingliz tili alifbosining o‘n oltinchi harfi.

**pacific** [pə'sifik] *a* sokin, tinch, osoyishta.

**packing** ['pækɪŋ] *n* 1) joylash, o‘rash, joylashtirish; 2) ma’lum tartibda taxlash, g‘aram qilish.

**paddock** ['pædək] *n* ihota qilingan yaylov.

**paddy** ['pædi] *n* ishlov berilmagan guruch.

**pagoda tree** [pə'gəudə,tri:] *n* yapon saforosi.

**palaeontology** [ ,pæliən'tɔlədʒi] *n* paleontologiya (*yer geologik tarixining qadimgi davrlarda yashagan va toshqotgan hayvon va o'simliklar haqidagi fan*).

**palisander** [ ,pæli'sændə] *n* palisandr (*issiq mamlakatlarda o'sadigan ba'zi daraxtlarning pishiq va qimmatbaho yog 'ochi*).

**palm** [pa:m] *n* palma, palma daraxti, palma daraxtining novdasi.

**palm** [pa:m] *attr* palma daraxtiga oid, palma daraxtidan qilingan, palma daraxtidan olingan.

**palmate** ['pælməit,] *a bot.* barmoqsimon, panjasimon.

- palm oil** [pa:mɔɪl] *n* palma moyi.
- palmy** ['pa:mi] *a* palma daraxtiga oid, palma daraxti.
- pampas** ['pæmpəs] *n pl* pampa (*Janubiy Amerika dashti*).
- pansy** ['pænzi] *n* kapalakgul, binafsha.
- paprika** ['pæprɪkə] *n* qizil qalampir, garmdori.
- papyrus** [pə'paɪərəs] *n* papirus (*tropik mamlakatlarda o'sadigan qamishsimon o'simlik*).
- paring** ['peərɪŋ] *n* qirindi, qirqindi, po'st, po'stloq.
- parsley** ['pa:shı] *n bot.* petrushka (*kashnichsimon o'simlik*).
- parsnip** ['pa:snip] *n bot.* pasternak (*shirin ildizli hushbo'y o't*).
- pasturage** ['pa:stjurɪdʒ] *n* yaylov.
- pasture** ['pa:sfə] *n* 1) yaylov, o'tloq; 2) yaylovdagi o'tlar.
- pea** [pi:] *n* 1) no'xat; 2) no'xat donasi.
- peach** [pi:tʃ] *n* shaftoli (*daraxti va mevasi*).
- peanut** ['pi:nʌt] *n* yeryong'oq.
- pear** [peə] *n* nok, nashvati (*daraxti va mevasi*).
- pearl-barley** ['pə:l, ba:lɪ] *n* arpa yormasi.
- peasant** ['peznt] *n* 1) dehqon; 2) dehqonlarga oid.
- peasantry** ['pezntri] *n* dehqon.
- peel I** [pi:l] *n* po'choq, po'st, po'stloq.
- peel I** [pi:l] *v* archmoq, archimoq.
- peeling** ['pi:lin] *n* po'choq, po'st, po'stloq, qobiq.
- peony** ['pi:əni] *n bot.* piongul, sallagul.
- pepper** ['pepə] *n* qalampir, murch, garmdori.
- pepper** ['pepə] *v* qalampir (*murch, garmdori*) sepmoq.
- pepper-elder** ['pepə'eldə] *n bot.* peperomiya.
- peppermint** ['pepəmɪnt] *n bot.* qalampirmunchoq, yalpiz.
- pepperplant** ['pepəpla:nt] *n bot.* suv qalampiri.
- pepperwood** ['pepəwud] *n* amerika qalampiri.

**perennial** [pə'reniəl] *a* 1) yil bo‘yi davom etadigan; 2) yozda qurimaydigan; 3) *bot.* ko‘p yillik.

**persimmon** [pə'simən] *n* *bot.* xurmo.

**pesticide** ['pestisaid] *n* *q.x.* pestitsid (*zararkunandalarga qarshi kurashish kumyoviy vositasi*).

**petal** ['petl] *n* *bot.* gulbarg, gultojbarg.

**pine I** [pain] *n* qarag‘ay.

**pine II** [pain] *v* 1) tinkasi qurimoq, saiflashmoq, sog‘ligini yo‘qotmoq; 2) sog‘inmoq, qo‘msamoq, sog‘inib siqilmoq.

**pineapple** ['painæpl] *n* ananas (*o ‘tsimon tropik o ‘simlik va uning xushbo ‘y shirador hosili*).

**pinnate** ['pineit] *a* *bot.* patsimon, barra.

**pipeclay** ['paipkleɪ] *n* oq gil, chinni gili, kaolin.

**pistil** ['pɪstɪl] *n* *bot.* urug‘chi, onalik.

**pit I** [pit] *n* chuqur, chuqurlik, o‘ra.

**pit II** [pit] *v* o‘raga joylashtirmoq, chuqur qazimoq.

**pit III** [pit] 1. *n* meva danagi; 2. *v* mevadan danagini ajratib olmoq.

**pitchfork** ['pɪtʃfɔ:k] *n* panshaxa, ayri.

**pith** [piθ] *n* *bot.* o‘zak (*o ‘simlikdagi*).

**plant** [pla:nt] 1. *n* o‘simlik; 2. *v* ekmoq, o‘tqazmoq.

**plantain** ['plænteɪn] *n* *bot.* bargizub, zubturum.

**plantation** [plæn'teɪʃn] *n* plantatsiya (*maxsus qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan maydon*).

**planter** ['pla:ntə] *n* 1) plantastiya egasi; 2) ekish mashinasi; 3) ekuvchi.

**plough** [plau] 1. *n* 1) plug; 2) shudgor, haydalgan yer; 2. *v* shudgor qilmoq, yerni haydamoq.

**ploughman** ['plaumən] *n* yer haydovchi.

**plum** [plʌm] *n* olxo‘ri; **french** ~ olxo‘ri qoqi, qora olxo‘ri.

**pluvial** ['plu:vɪəl] *a* yomg‘irli.

**pod** [pəd] *n* 1) po‘choq, qobiq, po‘st, qipiql, po‘stloq; 2) pilla.

**poisonous** ['pɔɪznəs] *a* zaharli, og‘uli.

**pollard** ['pɔləd] *v* biroz kesib qirqib kalta qilmoq, kesib tekislamoq (*daraxtni*).

**pollen** ['pɔlən] *n* *bot.* chang, gul changi.

**pollen** ['pɔlən] *v* changlamoq, changlatmoq, o‘simlik guliga gulchang tushirmoq.

**pollinate** ['pɔləneɪt] *v* *bot.* changlamoq, changlatmoq, o‘simlik guliga gulchang tushirmoq.

**pollute** [pə'lu:t] *v* iflos qilmoq, kir qilmoq.

**pollution** [pə'lu:ʃn] *n* ifloslanish, kir qilish.

**pomegranate** ['pɔmɪ,grænɪt] *n* *bot.* anor.

**pond** [pɔnd] *n* hovuz, havza, sun’iy ko‘l.

**poplar** ['pɔplə] *n* *bot.* terak.

**poppy** ['pɔpi] *n* *bot.* ko‘knor.

**potato** [pə'teɪtəʊ] *n* (*pl -oes*) kartoshka.

**precocious** [pri'kəʊʃəs] *a* 1) barvaqt, vaqtidan ilgari; 2) *q.x.* tezpishar, ertagi, chillaki.

**precocity** [pri'kəsətɪ] *n* ertapisharlik, tezpisharlik.

**predial** ['pri:dɪəl] *a* 1) yerga oid; 2) qishloqqa oid.

**primrose** ['prɪmrəʊz] *n* *bot.* navro‘zgul.

**procreate** ['prəukrɪeɪt] *v* 1) nasl yetishtirmoq 2) tug‘moq.

**procreation** [,prəukrɪ'eɪʃn] *n* 1) nasl yetishtirish, 2) tug‘ish.

**productivity** [.prədʌk'trɪvətɪ] *n* mahsuldorlik, unumdarlik; ~ **of land** hosildorlik, serhosillik.

**progeny** ['prədʒəni] *n* nasl, urug‘, avlod.

**prolific** [prə'lifɪk] *a* unumdar, hosildor, serhosil.

**propagate** ['prəpəgeɪt] *v* bolalamoq, ko‘paymoq; **to ~ by seeds** urug‘dan ko‘paymoq.

**propagation** [,prəpə'geɪʃn] *n* ko‘paytirish, ko‘payish.

**provender** ['prəvɪndə] *n* xashak, pichan, yem, ozuqa, don.

**prune I** [pru:n] *n* qora olxo‘ri, olxo‘ri qoqi.

**prune II** [pru:n] *v* butamoq, xomtok qilmoq.

**puddle** ['pʌdl] 1. *n* ko‘lmak; 2. *v* loyqalatmoq, loyqa qilmoq.

**puff** [pʌf] *n* 1) esish; 2) havo oqimi.

**pulp** [pʌlp] *n* 1) mevaning yumshoq joyi; 2) sovuq butqa.

**pulses** [pʌls] *n* dukkakli o‘simpliklar.

**pumpkin** ['pʌmpkn] *n* oshqovoq, qovoq.

**punk** [pʌŋk] *n* chirigan, po‘panak bosgan narsalar.

**purl** [pə:l] *v* shildiramoq, jildiramoq (*suv haqida*).

**pussy-willow** ['pusi, wɪləu] *n* sambit, sambittol.

**putrid** ['pjutrid] *a* chirigan, chirib qolgan, buzilgan, aynigan.

## **Q q**

**Q, q** [kju:] *n* ingliz tili alifbosining o‘n yettinchi harfi.

**quaking** [kweɪkɪŋ] *n* titrash, qaltirash; ~ **asp** tog‘terak.

**quassia** ['kwɔʃə] *n bot.* kassiya (*dukkakdoshlar oilasiga mansub o‘simplik, doni, barglari surgi dori sifatida ishlatiladi*).

**quebracho** [kə'braqʃə] *n* 1) *bot.* kvebraxo (*ba'zi janubiy Amerika daraxtlaridan olinadigan juda qattiq yog‘och taxtalar*); 2) kvebraxo po‘stlogi (*tibbiyotda teri oshlovchi modda sifatida ishlatiladi*).

**quicken** ['kwɪkən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*).

**quick-fence** ['kwɪkfens] *n* buta, gov, o‘simplikdan hosil bo‘lgan ixota.

**quickset** ['kwikset] *n q.x.* 1) qalamcha (*asosan do‘lananiki*); 2) buta (*chakalak*) gov, o‘simplikdan hosil bo‘lgan ixota.

**quince** [kwɪns] *n* behi (*daraxti va mevasi*).

**quitch** [kwɪtʃ] *n bot.* yer bag‘irlab o‘sadigan bug‘doyiq (*g‘allasimon o‘simplik*).

## **R r**

**R, r** [ɑ:] *n* ingliz tili alifbosining o‘n sakkizinchı harfi.

**raceme** ['ræsi:m] *n bot.* bosh, popuk, shingil.

**racemose** ['ræsiməus] *a bot.* popuksimon, popukli.

**radicle** ['rædɪkl] *n* 1) *bot.* ildizcha; 2) *anat.* ildiz, tomir, asab.

**radish** ['rædɪʃ] *n bot.* rediska.

**raffia** ['ræfɪə] *n bot.* rafiya.

**ramie** ['ræmi:] *n* Xitoyda o'sadigan qichitqi o't.

**ramification** [ræmɪfi'keɪʃn] *n* shoxlash, shox chiqarish, yangi novda, shox, butoq.

**ramify** ['ræmɪfaɪ] *v* shoxlamоq, shox chiqarmоq, sershox bo'lib ketmoq.

**ramose** ['reɪməs] *a* shoxli, butoqli, sershox.

**ranch** [ra:nʃ] 1. *n amer.* katta fermer xo'jaligi; 2. *v* chorvachilik bilan shug'ullanmoq.

**rancher** ['ra:nʃə] *n* chorvador, fermer xo'jaligi xo'jayini.

**rape** [reɪp] *n bot.* superitsa (*urug 'igan moy olinadigan o 'simlik*).

**raspberry** ['ra:zbərɪ] *n* malina, xojag'at (*mevasi va o 'simligi*).

**ravage** ['rævɪdʒ] *n* vayron qilish, yo'q qilish; ~ **of weeds** begona o'tlarni yo'q qilish.

**raw** [rɔ:] *a* ishlov berilmagan, chala pishgan, xom.

**reap** [ri:p] *v* o'rmoq; ~ **er** o'roqchi.

**reaping-hook** ['ri:pɪŋhuk] *n* o'roq, qo'l o'roq.

**red** [red] *a* qizil, qirmizi; ~ **Crescent** qizil yarimoy; ~ **pepper** qalampir, garmdori.

**reed** [ri:d] *n* qamish, qamishzor.

**rhododendron** [rəʊdə'dendrən] *n bot.* alp atirguli.

**rhubarb** ['ru:ba:b] *n bot.* ravoch (*yirik bargli, ildizi yog'on o 'tsimon ko 'p yillik o 'simlik*).

**rice** [raɪs] *n* 1) sholi; 2) guruch; 2. *attr.* guruchdan qilingan; ~ **field** sholipoya.

**riddled** [rɪdld] *a* sepilgan, ekilgan, sochilgan.

**riesling** ['ri:sln̩] *n* riesling (*oq uzumning bir turi*).

**ripe** [raɪp] *a* etilgan, pishgan (*meva*).

**ripen** ['raɪpən] *v* pishmoq, yetilmoq.

**ripeness** ['raɪpn̩s] *n* pishganlik, yetilganlik

**root** [ru:t] 1. *n* ildiz; 2. *v* ildiz otmoq.

**rootlet** ['ru:tlɪt] *n* 1) yangi novda, shox, butoq; 2) tomircha, ildizcha.

**rosary** ['rəuzərɪ] *n* gulzor, atirgulzor.

**rose** [rəuz] *n* atirgul.

**rosebud** ['rəuzbʌd] *n* atirgul g‘unchasi.

**rosebush** ['rəuzbuʃ] *n* atirgul tupi, bir tup atirgul.

**rot** [rɒt] 1. *n* chirish, irish; 2. *v* chirimoq, buzilmoq.

**rotten** ['rɒtn] *a* chirigan, buzilgan, irigan.

**rowan** ['rəuən] *n* chetan (*daraxti va mevasi*).

**rue** [ru:] *n* bot. toshbaqa toli (*zaharli sariq gulli buta o ‘simlik*).

**rut** [rʌt] *n* egat, joyak.

**rye** [raɪ] *n* javdar, javdari bug‘doy.

**rye-bread** ['raɪ,bred] *n* javdar unidan qilingan non.

## S s

**S, s** [es] *n* ingliz tili alifbosining o‘n to‘qqizinchi harfi.

**sable** ['seɪbl] *n* 1) sobol, Kamchatka suvsari; 2) qunduz mo‘ynasi; 2. *attr.* qunduzga oid.

**sabulous** ['sæbjələs] *a* qumli, qum bilan qoplangan.

**sac** [sæk] *n* biol. qopchiq, xalta, xaltacha.

**saccharify** [sə'kærifai] *v. kim.* kraxmalga aylantirmoq.

**saccharin** ['sækərɪn] *n* saxarin.

**saccharose** ['sækərəʊs] *n. kim.* saxaroza, o‘simlik (*lavlagi, shakarqamish*) shakari.

**saddle tree** [saddle tree] *n* bot. lola daraxti (*guli lolaga o ‘xshab ochiladigan daraxt*).

**saffron** ['sæfrən] *n* bot. 1) za’faron, za’far (*ziravor o ‘simlik*); 2) shafran (*olmaning bir navi*); 2. *v* za‘faron rangiga bo‘yamoq.

**sage I** [seɪdʒ] *n* bot. mavrak, marmarak (*yirik xushbo‘y gulli o ‘t yoki butasimon bir xil o ‘simlik*).

**sage II** [seɪdʒ] *n* dono odam, donishmand.

**sage-brush** [seɪdʒ] *n* bot. shuvoq, yovshan (*murakkabgullilarga mansub yem-xashak bo ‘ladigan ko ‘p yillik o ‘simlik*).

**sainfoin** ['sænfɔɪn] *n* bot. esparset (*ozuqabop dukkakli o ‘simlik*).

**saline** ['seɪlain] *n* 1) sho‘r tuproq yer; 2) sho‘r ko‘l; 3) suvi sho‘r buloq.

**salinity** [sə'lɪnəti] *n* tuzlanganlik, tuzlilik, sho'rlik.

**sallow I** ['sæləu] *n* bot. tol.

**sallow II** ['sæləu] 1. *a* sarg'ish, nosog', rangi ketgan (*yuz rangi haqida*); 2. *v* sarg'aymoq, rangi ketmoq.

**salsify** ['sælsifi] *n* bot. echkisoqol.

**salt-marsh** ['sɔ:lt,ma:ʃ] *n* sho'rxok yer, sho'r tuproq yer.

**saltpeter** [,sɔ:lt'pi:tə] *n* kim. selitra.

**salty** ['sɔ:ltı] *a* tuzli, tarkibida tuz bo'lgan, sho'r.

**saltwort** ['sɔ:ltwɔ:t] *n* bot. sho'r tuproqda o'sadigan ba'zi o'simliklarning umumiyligi nomi.

**samara** [sə'ma:rə] *n* bot. qanotli urug'.

**sand** [sænd] *n* qum.

**sand-bar** ['sændba:] *n* qumloq, sayozlik (*daryo etagida, dengiz chetida*).

**sand-bed** ['sænd,bed] *n* daryoning qumli o'zani (yo'li, tagi, osti).

**sand-dune** ['sænd,dju:n] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*).

**sand-eel** ['sænd,i:l] *n* zool. qumbaliq (*qumloq qirg'oqlarda yashovchi mayda baliq*).

**sand-hill** ['sænd,hı:l] *n* qumtepalar (*shamol uchirib yuradigan qum uyumlari*).

**sand-pit** ['sændpit] *n* ochiq qum koni.

**sand-spout** ['sændspaut] *n* qum uyurmasi.

**sand- storm** ['sændstɔ:m] *n* 1) samum (*Osiyo va Afrika cho'llarida: issiq va quruq shamol*) 2) qumli bo'ron, qum bo'roni.

**sandalwood** ['sændəlwud] *n* bot. sandal daraxti.

**sap** [sæp] 1. *n* 1) o'simlik shirasi, suvi; 2) ignabargli daraxtlarning smolali yelimi; 3) yashash qobiliyat, yashovchanlik; 2. *bot.* po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*).

**sapling** [sæplıŋ] *n* ko'chat, kichkina daraxt, daraxtcha.

**saprof** ['sæp,rɔt] *n* bot. po'stloq osti qatlami (*daraxtning po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*) ning chirishi.

**sapwood** ['sæpwud] *n* bot. po'stloq osti qatlami (*daraxt ostidagi yangi yog'och qismi*).

**savanna** [sə'venə] *n* savanna (*tropic, cho'l-biyobon*).

